

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Termiz davlat universiteti
Pedagogika fakulteti
Maktabgacha ta'lim kafedrası

KORREKSION PEDAGOGIKA VA LOGOPEDIYA FANIDAN
MA'RUZALAR MATNI

(Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalari uchun mo'ljallangan)



Termiz-2013

Maktabgacha ta'lim kafedrasining "28" avgust 2013- yil № 1 - sonli yig'ilishida muxokama qilindi va foydalanish uchun tavsiya etildi.

Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri dots.M.O Norbosheva.

Tuzuvchi: katta o'qituvchi Z.Xasanova

Taqrizchilar: dots. M.O. Norbosheva

p.f.n: A. Raxmatullayev

ANNOTATSIYA

«Korreksion pedagogika va logopediya » bakalavriat yo‘nalishi: 5111800 – Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun ma‘ruza matni sifatida yaratilgan. Ushbu yo‘nalishning o‘quv rejasida xuddi shu nomli kurs mavjud.

Mazkur ma‘ruza matnda jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixofiziologik rivojlanish xususiyatlari, ulardagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari, turlari ko‘rib chiqilgan. Maktabgacha yoshdagi rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga differensial va integratsiyalashgan, inklyuziv ta‘limni tashkil etish yo‘l, usul hamda tashkiliy formalari bayon etilgan.

Ushbu ma‘ruza matni Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. Undan kasb-xunarga yo‘naltiruvchi tashxis markazi xodimlari, pedagogik kasb-hunar kolleji talabalari, maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlari va defektologlar xam foydalana olishlari mumkin.

Tuzuvchi: k.o‘q. Xasanova Z.T.

Taqrizchilar: dots. M.Norbosheva M.O.
p.f.n. A.Rahmatullayev

Kirish

O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartida «Maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi bolalar ta'limiga qo'llanadigan davlat talablari» mavjud.

Shu talablar asosida "Uchinchi ming yillikni bolasi" nomidagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch dasturi tuzilgan. Ushbu hujjat "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "Sog'lom avlod" Davlat dasturini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan.

Mustaqillikka erishgan hozirgi davrning muhim hususiyatlaridan biri, bozor munosabatlari shakllanayotgan mazkur jarayonga mos keladigan, yangicha fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashdan iborat. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "fikrlash, ishlash va yashash madaniyatiga ega bo'lgan mustaqil shaxsni voyaga yetkazishimiz zarur".

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni istiqbol g'oyalari asosida sog'lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir.

Biroq, maktabgacha yoshdagi bolalar orasida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ham uchrab turadi. Turli sabablarga ko'ra ko'zi ojiz, kar yoki zaif eshituvchi bo'lib qolgan va boshqa toifadagi alohida yordamga muxtoj bolalar maktabgacha tarbiya muassasalariga hamma qatori qatnab, ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb etilishlari kerak.

Maktabgacha tarbiya muassasalari bolalarni jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan rivojlantirib, ularning tug'ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan olda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta'lim olishga (maktabga) tayyorlashi lozim. Buning uchun har bir tarbiyachi bolaning rivojlanishida qanday nuqsonlar bo'lishi mumkin, ularning turlari, kelib chiqish sabablari kabi va boshqa ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Shuni hisobga olib, Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi bakalavriat o'quv rejasiga «Korreksion pedagogika va logopediya fani kiritilgan».

Mazkur ma'ruzalar matnining maqsadi pedagogika oliy o'quv yurtlarida «Korreksion pedagogika va logopediya» kursini talabalarga chuqur o'rganishga yordam berish, ma'ruzalar matni ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida korreksion pedagogika fanining maqsad va vazifalari, alohida yordamga muxtoj bolalar ta'rifi berilgan bo'lsa, ikkinchi qismda logopediya fanidan maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'plab uchraydigan nutqiy nuqsonlar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan.



1- MAVZU: KORREKSION PEDAGOGIKA FANINING UMUMIY MASALALARI



UMUMIY O'QUV MAQSADLARI

Ta'limiy: Talabalarda korreksion pedagogika fani, uning predmeti, maksadi, vazifalari, metodlari va usullari xakida nazariy bilimlarni berish byicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Tarbiyaviy: Talabalarning jamoada, kichik guruqlarda va individual ishlash qobiliyatlarini shakllantirish, kasbga bo'lgan qiziqishlarini ortirish

Rivojlantiruvchi: Talabalarda erkin fikrlash va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish.



Asosiy ma'lumotlar



Xar kandy jamiyat o'z farzandlari xar tomonlama etuk, komil inson bo'lib voyaga etishiga, munosib fuqarolar bo'lib, davlat taraqqiyotiga, gullab yashnashiga o'z ulushlarini qo'shishlariga qarakat qiladi, umid boqlaydi.

O'zbekistonda korreksion pedagogika — maxsus yordamga muqtoj jismoniy yoki psixik kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'limtarbiyasi bilan shuqullanadigan fandir.

Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talaba soni: 26 nafar
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza
Ma'ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Korreksion Pedagogika fani, uning predmeti, maksadi, vazifalari 2. Aloxida yordamga muxtoj bolalardagi nuksonlarni oldini olish, bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiyalash 3. Inklyuziv ta'lim, ijtimoiy adabtatsiya, reabilitatsiya ishlari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga o'quv kursi haqida to'liq ma'lumot berish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
➤ Korreksion pedagogika fani nimani o'rganadi degan savolga javob berish.	➤ Korreksion pedagogika fani xaqida boshlangich ma'lumotga ega bo'ladi.
➤ Korreksion pedagogika fanining predmeti nimani o'rganadi degan savolga javob berish.	➤ Korreksion pedagogika fanining predmetini tushunib oladi
➤ Korreksion pedagogika fanining maqsadi va vazifalari nimadan iboratligini bilish.	➤ Korreksion pedagogika fanining maqsadi va vazifalarini sanab bera oladi
➤ Maxsus yordamga muxtoj bolalardagi nuksonlarni oldini olish, bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiyalash xaqida bilimga ega bulish.	➤ Maxsus yordamga muxtoj bolalardagi nuksonlarni oldini olish, bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiyalash xaqida bilim va tasavvurga ega buladi.
➤ Inklyuziv ta'lim, ijtimoiy adaptatsiya, reabilitatsiya ishlari xaqida ko'nikma xosil kilish	➤ Inklyuziv ta'lim, ijtimoiy adabtatsiya, reabilitatsiya ishlarining uzaro farqini ajratish imkoniyatiga ega bo'ladi.
Ta'lim metodlari:	Ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, guruhlarda ishlash, test.
Ta'lim vositalari:	Ma'ruzalar matni, marker, doska, skotch,

	vatman, tarkatma materiallar, doska
Ta'lim shakli:	Frontal, jamoaviy ish.
O'qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va jamoaviy ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baxolash:	Nazorat savollari.

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari, vakti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1 – bosqich: Kirish qism (15 min)	1.1.Ma'ruza mashg'ulotining mavzusini bayon etadi va mavzu bo'yicha savol–javob o'tkazadi.	Savol – javobda ishtirok etadi.
	1.2.Tarkatma materiallarni tarkatadi. Mavzuga doir asosiy savollar, atamalar va muxim tushunchalarni izoxlab, mashg'ulotning maksadi va rejalashtirilgan o'quv ishlanmalar bilan tanishtiradi.	Tinglashadi.
	1.3.Mavzu buyicha savol – javob o'tkazadi.	Savol – javobda ishtirok etishadi.
2-bosqich Asosiy qism (55 min)	<ul style="list-style-type: none"> ➤ 2.1. Talabalarga quyidagi savol va topshiriqlarga o'lab javob berish taklifini kiritadi. Nima sababdan korreksion pedagogika fanining muammolari kupayib bormokdaq ➤ Korreksion pedagogikaning kaysi soxalari buyicha nuksonlar soni ortib bormokdaq ➤ Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaga psixologik-pedagogik tavsiya berish mumkinmiq ➤ Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash mumkinmiq 	Savollarga javob berishadi
	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Korreksion pedagogika fanining muammolari mavzusida savol-javob utkazadi 	Savol – javobda ishtirok etishadi
	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Reja buyicha ma'ruzaning mazmuni prezentatsiya asosida yoritadi. ➤ Talabalar 4 ta kichik guruxlarga bulinadi va ularga mavzuga doir test savollari xamda topshiriklarni tuzish vazifasi beriladi. 	
3-boskich Yakuniy qism (10 min)	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Gurux ishtirokchilaridan biri prezentatsiya kiladi. ➤ Prezentatsiya jarayonida talabalar Bilan birgalikda xar bir guruxning javoblari tahlil kilinib, kamchiliklari tuldiriladi 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Gurux sardorlari chikib uz javoblarini sharxlashadi. ➤ Ekspert guruxi a'zolari javoblar mazmunini tuldirishadi va baxolashda ishtirok etishadi.
	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Mazuni yakunlab, umumlashtirib, xulosa beradi. ➤ Bajarilgan ishlar baxolanadi. ➤ Uyga vazifa sifatida Aloxida yordamga muxtoj bolalardagi nuqsonlarni o'rganib kelish topshirigi beriladi. 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Xulosa yozib boriladi ➤ Ekspert sifatida ishtirok etishadi ➤ Topshiriqni yozib oladilar.

1993-yil 1-dekabrda 153 mamlakat bola xukuklari qakidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish yo`li bilan o`zlarining bolalar kelajagini muqofaza kilishga tayyor ekanligini namoyish etdilar. Bola qukuqlari qaqidagi Konvensiya bu butun jaqon bolalariga xos bo`lgan bolalar qukuqlari qakidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomasidir. Konvensiya bola qukuqlari qaqidagi universal rasmiy Kodeksdir.

Konvensiyada bolalar huquqlari to`rt toifaga ajratib berilgan bo`lib, 54 moddani o`z ichiga qamrab olgan.

Yashay olish hukuki: bola talablarini kondirish va hayotiy hukuqtsarni o`zida mujassam etish kabi asosiy shartlarni xamda tibbiy xizmatdan foydalanish, ovkatlanish, boshpanaga ega bo`lish kabi adolatli, hayotiy me'yorlarni o`z ichiga oladi.

Bolalar zo`ravonlik va ekspluatatsiya qilinishdan ximoyalantan bo`lishlari shart. Bu borada kuyidagi muammolarga, ya'ni: qochoq bolalar muammosi, adliya tizimidagi zo`ravonliklar, bolalarni kurolli nizolarga jalb etish muammolari, bolalar mexnati, balog`at yoshiga etmaganlarni seksual ekspluatatsiya qilish va o`smirlarning giyohvand moddalarni iste'mol qilishmuammolari alohida e'tiborda bo`lishi kerak.

Rivojlana olish hukuki: bolalarning o`z qobiliyatlarini kengroq rivojlantirishga erishishlari uchun zarur. Bunga misol qilib, bilim olish, o`yin, hordiq chiqarish, madaniy faoliyatlar, axborot olish va vijdoniy poklik kabi huquqlarni olish mumkin.

4. Ishtirok etish huquqi: bolani jamiyat va mamlakat hayotida faol ishtirok etishga chorlaydi. Bu toifa bolalarning hayotiga taalluqli bo`lgan muammolar bo`yicha jahonshumul yig`ilish va tadbirlarda ishtirok etish huquqini va o`z fikrmulohazalarini aytishda erkin bo`lish kabi hukuqlarni belgilaydi.




KORREKTSION PEDAGOGIKA — anomaliyalarning kelib chiqish sabablari, turlarini, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishdagi xususiyatlarini o`rganish, shular asosida inklyuziv yoki differentsial ta'limni tashkil etish, ularning ta'limtarbiyasi bilan shug`ullanishdir.

Korreksion pedagogika fanining mavzu bahsi anomal maxsus yordamga muhtoj bolalardir.



Korreksion pedagogika fanining maqsadi — anomal bolalarga integratsion, inklyuziv, differentsial ta'limni tashkil etish uchun zarur shartsharoitlarni o`rganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotda tatbiq etish yo`llarini tarbiyachi hamda o`qituvchilarga ko`rsatib berishdan iborat.



Mahsus yordamga muqtoj anomal bolalar toifalari



Bolaning xoh ona qornida, xoh tugilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur boʻlgan maʼlum shartsharoitlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga, yaʼni jismoniy yoki psixik nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Inklyuziv taʼlim ijtimoiy adaptatsiya, reabilitatsiya ishlari.



Inklyuziv taʼlim bu maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashtirgan va sharoitga qarab oʻzgaruvchan, gʻamxoʻrlik bilan yondasha oladigan taʼlim tizimidir. Ushbu ishlar oddiy, sogʻlom bolalar oʻquv muassasalarida amalga oshiriladi. Inklyuziv jalb etish (vklyuchenie) degan maʼnoni anglatadi, yaʼni jismoniy yoki Psixik rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni sogʻlom tengdoshlari bilan oʻzaro bogʻlanib, birgalikda taʼlim olishidir.

Rivojlangan mamlakatlarda "Maxsus ta'lim zaruriyati" nomli xujjatga javoban SVR — Reabilitatsiya tashkiloti tashkil etildi. Tashkilot nogironlar jamiyati, nogironlar oilalari, Soqliqni saqlash vazirligi, Ijtimoiy ta'minot vazirligi qamda kasaba uyushmalarining vakillarini o'z ichiga qamrab olgan. Uning asosiy maqsadi — jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni qimoyalash, huquqlarini tiklash, vakolat berish, ta'limtarbiya tizimini shakllantirish, jamiyat va raqbariyat diqqatini bu narsaga jalb etishdir.



Ijtimoiy integratsiya ijtimoiy tafovutni kamaytirishga, nogiron va sog'lom bolalarni o'zaro do'stlashishga, birbiriga xurmat bilan qarashga undaydi, sog'lom bolalarni muruvvatli bo'lishga o'rganadi. Jamiyat nogiron kishilarga to'g'ri munosabatda bo'lishi kerak, Konstitutsiyamizdagi barcha bandlar ular uchun xam taalluqli. Har kanday ta'lim integratsiyasi inklyuziv ta'lim sifatini oshiradi. Inklyuziv ta'lim markazida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bola turadi, unga xar tomonlama g'amxo'rlik ko'rsatiladi.

Integral — mujassam, ajratib bo'lmaydigan kism degan ma'noni bildiradi. qar bir bola ta'limga jalb etilishi lozim. Integratsiyalashgan jamiyatda barcha teng xukukka ega, bu yaxlit jamiyatdir. Inklyuziv ta'lim tufayli jamiyat integratsiyalashgan jamiyatga aylanadi. 2001 yilda YUNESKO "qamma uchun ta'lim" dasturini qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasi ushbu dasturga imzo chekdi. Keng miqyosda "hamma uchun ta'lim"(Obuchenie dlya vsex) joriy etilishi YUNESKO tomonidan boshlab yuborildi.



2001 yildan boshlab O'zbekiston Salomon deklaratsiyasiga binoan yaratilgan (Ta'lim tizimi anomal bolalarni qabul etib, ularning ta'lim-tarbiyasi uchun zarur shartsharoitlarni yaratishi lozimligi haqida) ("Obuchenie dlya vsex") "hamma uchun ta'lim" dasturini amalga oshirishga imzo chekkan ekan, barcha ta'lim xodimlari bu ishga o'z xissalarini ko'shib, inklyuziv ta'limni takomillashtirishda qatnashishlari lozim.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Anomal bolalar sog'lom tengdoshlari orasida inklyuziv ta'limda yoki
2. Maxsus ta'lim tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi kerak.

Ekspert varagi № 2

1. Korrektsiya va kompensatsiya nima?
2. Korrektsion pedagogika fanining rivojlanishi haqida gapirib беринг.

Ekspert varagi № 3

1. Kimlarni anomal bolalar deb ataymiz?
2. Anomal bolalarning qanday toifalari mavjud?

Ekspert varagi № 4

1. Anomal bolalar qayerda ta'lim olishlari kerak va nima uchun?
2. Anomaliyalarning kelib chiqish sabablari nima?

Ekspert varagi № 5

1. Aloxida yordamga muhtoj bolalar deb kimlarni aytamiz?
2. Inklyuziv ta'lim uchun nimalar kerak?

Ekspert varagi № 6

1. Integratsion ta'lim nima degani?
2. Bola huquqlari haqidagi Konventsiyani o`qing

1. Korrektsion pedagogika asoslari fanining predmeti nimadan iborat

- A. Korrektsion pedagogika-jismoniy va ruxiy kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarni urganadi
- B. Korrektsion pedagogika fani anomal bolalar uchun differentsial ta'limni tashxis etadi, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shugullanadi
- S. Korrektsion pedagogika masalalarini ishlab chikishda asos buladigan eng muxim metodologik printsip tarakkiyot printsipidir.
- D. Anomaliyalarning kelib chikishi sabablarini, turlarini, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishdagi xususiyatlarini urganish, shular asosida, differentsial ta'limni tashkil etish, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shugullanadi.
- Ye. Korrektsion pedagogika fani ogir nutk nuksonlarini urganish, oldini olish, bartaraf etish yullari usullarini urganadi.

2. Anomal bolalarning kaday kategoriyalari mavjudq

- A. Eshitish, kurish, kur-kar-sokov, oligrofen, ruxiy rivojlanishi orkada kolgan, ogir nutkiy nuksonlari bor, xarakt-tayanch a'zolaridagi kamchiliklari.
- B. Kar, sokov, kulogi ogir, keyinchalik kulogi ogir bulib kolgan bolalar
- S. Dikkat, xotira, intilish, kizikish, sezgi kabi ruxiy protsesslar.
- D. Meningit, meningoentsefalit, otit, markaziy nerv sitsemasi shikatslanishi
- Ye. Tugma yoki orttirilgn infektsiya, intoksikasiya va boshka omillar.

3. Korrektsion pedagogika fanining kaday tarmoklarini bilasizq

- A. Surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofreno, pedagogika, logopediya
- B. Tiflopedagogika, pedagogika, anatomiya, maxsus pedagogik
- S. Oligofrenopedagogika, pedagogika tarixi, nevropatologiya
- D. Anatomiya, psixopatologiya, pedagogika tarixi, surdopedagogika
- Ye. Maxsus psixologiya va psixodiagnotsika, logopediya, umumiy fiziologiya

4. Korrektsion pedagogika fani kaysi fanlar bilan uzviy alokadaq

- A. Logopediya, tilshunoslik, anatomiya, nevropatologiya, umumiy fiziologiya
- B. Otalarinologiya, nevropatologiya, psixopatologiya, pediatriya, umumiy maxsus psixologiya va psixodiagnotsika
- S. Psixopatologiya, tibbiyot fanlari, tilshunoslik va psixolingvitsika, maxsus psixologiya va psixodiagnotsika
- D. Biologiya, anatomiya, oligofreno, pedagogika, tiflopedagogika
- Ye. Logopediya, psixolingvitsika, biologiya, psixopatologiya

Glossariy

Korreksion pedagogika fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlar mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi:

Surdopedagogika (lotincha surdus — kar, gung soʻzidan olingan) — eshitish qobiliyati zaif bolalarning taʼlimtarbiyasi bilan shugullanadigan fan;

Tiflopedagogika (yunoncha tiflos koʻr, soʻqir soʻzidan olingan) — koʻrish qobiliyati zaif bolalarning taʼlimtarbiyasi bilan shugullanadigan fan;

Oligofrenopedagogika (yunoncha oligos — kam, fren — aql soʻzlaridan olingan) — aqliy tomondan zaif bolalarning taʼlimtarbiyasi bilan shugullanadigan fan; logopediya (yunoncha logos — soʻz, padeo — tarbiya soʻzlaridan olingan) — oqir nutq nuqsonlarini oʻrganish, oldini olish, bartaraf etish yoʻllari, usullarini oʻrganadigan fan.

Integral — mujassam, ajratib boʻlmaydigan kism degan maʼnoni bildiradi.

Adabiyotlar

1. *Salamanskaya deklaratsiya. Ispaniya, 1994.*
2. *Bola qukuqlari toʻqrisida Konventsiya. Oʻzbekiston bolalar jamqarmasi.*
3. *T. A. Vlasova, M. S. Pevzner. Kamol topishda kamchiliklari boʻlgan bolalar xakida. T., «Oʻqituvchi», 1976.*
4. *Defektologicheskiy slovar. APN ITTIFOq, NIID, Pedagogika, 1970.*
5. *N. Kobernik, V. N. Sinev. Vvedenie v spetsialnost korreksion pedagogika. Kiev. Glavnoe izdatelstvo ob'edineniya "Vusshaya shkola", 1984.*
6. *L. Moʻminova, M. qaqramonova. Logopediya terminlarining ruschaoʻzbekcha izoqli luqati. Toshkent, "Oʻqituvchi", 1988.*
7. *K. K. Mamedov, q.B. Shoumarov, V. P. Podobed. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar qaqida. T., 1993.*
8. *V.S.Raqmonova. Korreksion pedagogika va logopediya asoslari. T., 1991.*
9. *B. Shoumarov va boshqalar. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. T., "Meqnat", 2000.*



2- Mavzu: Maxsus yordamga muxtoj bolalar toifalari



UMUMIY O'QUV MAQSADLARI

Ta'limiy: Talabalarda aloida yordamga muxtoj bolalar toifalari haqida nazariy bilimlarni berish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Tarbiyaviy: Talabalarning jamoada, kichik guruhlarda va individual ishlash qobiliyatlarini shakllantirish, kasbga bo'lgan ishlarini ortirish

Rivojlantiruvchi: Talabalarda erkin fikrlash va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish.



Asosiy ma'lumotlar



Tiflopedagogikada kozi oqiz bolalar ko`r (so`qir), yaxshi kora olmaydigan, ko`zi xira bolalar guruhiga bolinadi. Ko`r bolalarning ko`rish qobiliyati keskin kamaygan (total korlik) yoki korrektsiya qo`llanilganida (kozoynak tutilganda) ham ko`rish o`tkirliga 0,04 gacha pasaygan bo`lsa, bunday bolalar amalda ko`r bo`ladi. Zaif ko`ruvchi bolalarda ko`rish o`tkirliga 0,05 dan to 0,4 gacha bo`ishi mumkin. Ushbu guruldagi bolalar tevarak-atrofni ko`rish analizatori orqali idrok etadi.

Ko`rish analizatori yordamida dunyoni idrok etish bolaning Psixik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega Tevarak- atrof haqidagi eng kuchli taassurotlar ko`z bilan idrok etiladi. Bola ko`rish qobiliyati orqali narsalarning rangi, shakli, hajmi, harakati, uzoq yaqinligi, fazodagi o`rni asosida tasavvurga ega bo`ladi.

Ma'lumki, ko`rish analizatori nurlarni qabul qiluvchi qism—ko`z olmasi (soqqasi) va uning yordamchi apparatidan ko`zga tushgan tasvirni avval po`stloq osti markazlariga, keyin esa oliy ko`ruv markazlari joylashgan katta miya po`stlogiga (ensa bo`laklariga) yetkazib beradigan o`tkazuvchi yo`llardan tashkil topgan. Ana shu analizatorning har qanday qismlaridaga o`zgarishlar bolaning ko`rish qobiliyatiga albatta ta'sir ko`rsatadi.



Korishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablariga kora tugma va orttirilgan boladi. Tugma nuqsonlar orasida irsiy sabablar (masalan, tugma kataraktaning ba'zi shakllari va boshqalar), homilador ayolning toksoplazmoz, qizilcha kasalliklari bilan og`rishi, homila ko`rish organlarining embrional rivojlanish paytida zararlanishi, miya osmasi va shu kabi kasalliklar katta rol o`ynaydi. Ortgirilgan ko`rish anomaliyalari hozirgi kunda nisbatan kam uchraydi.

1. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talaba soni: 26 nafar
Mashg`ulot shakli	Ma`ruza
Maruza rejasi	1.Sensor nuqsonli bolalar 2.Ko`r va zaif ko`ruvchi bolalar 3.Kar, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bo`lib qolgan bolalar. 4.Oligofren bolalar ularning tavsifi. 5.Tug`ma va ortirilgan oligofreniya.
Uquv mashg`ulotining maksadi: Talabalarga ukuv kursi xakida tulik ma`lumot berish.	
Pedagogik vazifalar	Uquv faoliyati natijalari
1. Sensor nuqsonli bolalarga kaysi kategoriya mansub degan savolga javob berish.	➤ Sensor nuqsonli bolalar haqida boshlang`ich ma`lumotga ega bo`ladi.
➤ Ko`rishga aloqador nuksonlar kelib chiqish sabablariq degan savolga javob berish.	➤ Ko`rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablarini tushunib oladi
➤ Kar, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bo`lib qolgan bolalarni ukitishdan maksad nimadan iboratligini bilish.	➤ Kar, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bo`lib qolgan bolalarni ukitishdan maksadi va vazifalarini sanab bera oladi
➤ Oligofren bolalar ularning tavsifi xakida bilimga ega bulish.	➤ Oligofren bolalardagi nuksonlarni oldini olish, bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiyalash xakida bilim va tasavvurga ega buladi.
➤ Ko`zi ojiz bolalar uchun O`zbekistonda kanday muassasalar tashkil etilganligi xakida tushuncha xosil kilish	➤ Ko`zi ojiz bolalar uchun inklyuziv ta`lim, ijtimoiy adabtatsiya, reablitatsiya ishlarining uzaro farkini ajratish imkoniyatiga ega buladi.
Ta`lim metodlari:	Ma`ruza, namoyish etish, savol-javob, guruhlarda ishlash, test.
Ta`lim vositalari:	Ma`ruzalar matni, marker, doska, skotch, vatman, tarkatma materiallar, doska,kodoskop.
Ta`lim shakli:	Frontal, jamoaviy ish.
Ukitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalar Bilan ta`minlangan va jamoaviy ishlashga muljallangan auditoriya.
Monitoring va baxolash:	Savol – javob, nazorat savollari.

Ma`ruza mashg`ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat boskichlari, vakti	Faoliyat mazmuni	
	Uqituvchi	Talabalar
1 – bosqich: Kirish qismi (15 min)	1.1. Ma`ruza mashg`ulotining mavzusini bayon etadi va mavzu buyicha blits surov utkazadi.	Savol – javobda ishtirok etadi.
	1.2. tarkatma materiallarni tarkatadi. Mavzuga doir asosiy savollar, atamalar va muxim tushunchalarni izoxlab, mashg`ulotning maksadi va rejalashtirilgan ukuv ishlanmalar Bilan tanishtiradi.	Tinglashadi.
	1.3. Mavzu bo`yicha savol - javob o`tkazadi.	Savol – javobda ishtirok etishadi.
	➤ Talabalarga quyidagi savol va	Savollarga javob berishadi

2-bosqich Asosiy qism (55min)	<p>topshiriklarga uylab javob berish taklifini kiritadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ Sensor nuqsonli bolalar bilan inklyuziv integratsion ta'lim qanday tashkil etiladiq ➤ Eshituv nuqsonlarining qaysi turlarini bilasiz ➤ Eshituv nuqsonlarining kelib chiqish sabablari nimalardan iborat ➤ Eshituv nuqsonlari bor bolalar qaerda tarbiyalanishi zarur ➤ Ko'rish analizatorining ahamiyati nimada ➤ Ko'rishdagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari nimada ➤ Ko'rish qobiliyati zaif bolalar bilan ommaviy maktab va bogchalarda olib boriladigan ishlarni tariflab bering. 	
	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Alohida Yordamga muhtoj bolalar toifalari mavzusida savol - javob otkazadi 	Savol - javobda ishtirok etishadi
	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Reja bo'yicha ma'ruzaning mazmuni Pezentatsiya asosida yoritadi. ➤ Talabalar 4 ta kichik guruxlarga bulinadi va ularga mavzuga doir test savollari xamda topshiriklarni tuzish vazifasi beriladi. 	
	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Gurux ishtirokchilaridan biri prezentatsiya kiladi. ➤ Prezentatsiya jarayonida talabalar Bilan birgalikda xar bir guruxning javoblari taxlil kilinib, kamchiliklari tuldiriladi. 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Gurux sardorlari chikib uz javoblarini sharxlashadi. ➤ Ekspert guruxi a'zolari javoblar mazmunini tuldirishadi va baxolashda ishtirok etishadi.
3-boskich Yakuniy qism (10 min)	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Mazuni yakunlab, umumlashtirib, xulosa beradi. 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Xulosa yozib boriladi
	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Bajarilgan ishlar baxolanadi. ➤ Uyga vazifa sifatida Aloxida yordamga muxtoj bolalardagi nuksonlarni urganib kelish topshirigi beriladi. 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Ekspert sifadida ishtirok etishadi ➤ Topshirikni yozib oladilar.



Ko'rish qobiliyatining og'ir shakldagi buzilishlari bolaning xarakterida, psixikasida ikkilamchi asoratlar paydo bo'lishiga olib keladi.
Ko'r bo'lib qolgan bolalar bilan barcha ishlar ularning ko'rish tasavvurlarini tiklash asosida olib boriladi va bunda ma'lum natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Ko'zi ojizligi qancha kech paydo bo'lgan bo'lsa, bolaning tevarak atrof hakidagi tasavvurlari shuncha boy va ularni mustaxkamlash, takomillashtirish, kengaytirish shunchalik oson bo'ladi.

Ko`zi ojiz, so`qir bolalar ko`r tug`ilgan va ko`r bo`lib qolgan bolalar deb ikki guruxga ajratiladi.

Birinchi guruxga tug`ilishdan ko`zi ojiz va tug`ilganidan so`ng to uch yoshgacha bo`lgan davr ichida ko`rish qobiliyati buzilgan bolalar kiritilsa, ikkinchisiga keyinchalik ko`zi ko`r bo`lib qolgan bolalar kiritiladi, bunday bolalar xotirasida ko`rish tasavvurlari qolgan bo`ladi.



Ko`rish kobilyati keskin kamaygan bolalar ko`zi ojiz bolalar uchun maxsus tashkil etgan maktablarda yoki sog`lom tengdoshlari orasida ta'lim olishlari kerak. Bu maktablarda sog`lom analizatorlarning aktiv faoliyati asosida (tuyg`u va eshitish, boshqa sezgi analizatori) ko`rish analizatori faoliyatini qoplash ishlari olib boriladi. Maxsus ta'limtarbiya ishlari ko`rish qobiliyatining zaifligi nagijasida paydo bo`lgan ikkilamchi psixik asoratlarning oldini olish, ularni bartaraf etish, korrekpiyalashga karatiladi. Bolada mustaqil xayot uchun zarur b`ylgan barcha bilim, ko`nikma xamda malakalar shakllantirib boriladi.

Zaif ko`ruvchi bolalar

Tevarak atrofni ko`rish analizatori orkali idrok etadilar. Ular xam ko`rish kobilyati zaif bolalar uchun tashkil etilgan maxsus maktabda yoki ko`rlar maktabi qoshidagi maxsus sinflarda sog`lom tengdoshlari orasida ta'lim olishlari kerak. Bunday bolalarni tarbiyachi va o`qituvchilar sog`lom tesngdoshlaridan ajratib olib, iloji boricha vaqtlı maxsus maktablarga jo`natishlari yoki inklyuziv ta`limni tashkil etishlari kerak.

Ko`rish kobilyati zaiflashgan bolalar

Ko`rish kobilyati zaiflashgan bolalar satrlarni yaxshi ajraga olmaydilar, shakli o`xshash narsa, xarflarni birbiri bilan adashtirib yuboradilar, natijada qilish va yozishda ko`p xatolarga yo`l ko`yadilar. Rakamlarni birbiridan yaxshi ajrata olmaslik okibatida hisoblashda va matematika masalalarini echishda kiynaladilar. Ular doskaga yozilganlarni, jadval, sxema va boshqa tasvirlarni yaxshi ko`rmaydilar, ko`rish bilan bog`liq ishni bajarish vaktida tez charchab qoladilar. Notog`ri muxit, noqulay sharoit bolaning ko`rish qobiliyati keskin pasayib borishiga olib kelishi mumkin.


Tarbiyachi va o`qituvchilar ko`rish kobilyati zaif bolalarni o`z vaqtida oftalmolog xuzuriga maslahatga yuborilari kerak.

Oftalmolog bolani tekshirib, kerak bo`lsa unga korrektsiya qiladigan ko`zoynak taqib yurishni tavsiya etadi va bola qaerda ta'lim olishi kerakligini aniqlaydi.



Nutq —murakkab psixik faoliyat. U psixik jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol b'lib y'sishiga katta tasir k'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan b'lib, atrofdagilarga taklid etish y'li bilan rivojlanib boradi. Og`zaki nutq ning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni xarakatta keltiruvchi analizator ishtirok etadi. Nutqni harakatta keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam boglangan holda ishlaydi, eshituv analizatorining rivojlanish darajasi esa ko`p jihatdan talaffuzga bog`liq.

Surdopedagogikada eshitishida nuqsonlari bor bolalar



Kar soqov bolalarning 25—30 foizida eshitish nuqsonlari tug`ma bo`ladi. Bunga sabab: onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan kasallanishi, otaonalarning ichkilik ichib turishi, onaning homidadorlik davrida bilarsilmas dori-darmonlarni iste'mol qilishi (ayniqsa, streptomitsin, xinin singari dorilarni), homilaning shikastlanishi; irsiyat, genetik faktorlar (quloq tuzilishidagi patologik o`zgarishlar bo`lishi, masalan, eshitish yo`li atreziyasi bituvi).

Zaif eshituvchi bolalar

uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha tarbiya muassasasi hamda maktabinternatda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachi va o`qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'limtarbiya olishlariga yordam berishlari kerak.



Zaif eshitish natijasida bola nutkida bir qator kamchiliklar kuzatiladi: lug`atining kambag`al bo`lishi, grammatik komponent rivojlanmagan — gap ichida so`zlarni tashlab ketish, so`zlarni noto`gri ishlatish, ularni o`zaro bog`lay olmaslik, kelishik, so`z yasovchi, so`z o`zgartiruvchi ko`shimchalarni ishlata olmaslik; tovushlarni noto`gri talaffuz qilish — o`xshash, jaranglijarangsiz undoshlarni birbiri bilan adashtirish, tushirib ketish va boshqalar shular jumlasidandir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

Ekspert varagi № 1

3. Bolaning rivojlanishida eshituv analizatori kaday o`rin tutadi?
4. Eshituv nuksonlarining qaysi turlarini bilasiz?

Ekspert varagi № 2

6. Eshituv nuksonlarining kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?
7. Eshituv nuqsonlari bor bolalar qaerda tarbiyalanishi zarur?

Ekspert varagi № 3

1. Ko`rish analizatorining axamiyati nimada?
2. Ko`rishdagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari nimada?

Ekspert varagi № 4

1. Ko`rish qobiliyatida kuzatiladigan nuksonlarning oldini olish va bartaraf etish uchun nimalarni bilish kerak?

Ekspert varagi № 5

1. Ko`rish qobiliyati zaif bolalar bilan ommaviy maktab va bog`chalarda olib boriladigan ishlarni tariflab bering.

Ekspert varagi № 6

9. Ko`zi ojiz bolalar uchun O`zbekistonda kaday muassasalar tashkil etilgan?

Test topshiriqlari

1. Anomal bolalarning qanday kategoriyalari mavjud?

- A. Eshitish, kurish, kur-kar-sokov, oligrofen, ruhiy rivojlanishi orkada qolgan, og`ir nutqiy nuqsonlari bor, xarakt-tayanch a`zolaridagi kamchiliklari.
- B. Kar, soqov, qulog`i ogir, keyinchalik qulog`i og`ir bo`lib qolgan bolalar
- S. Dikkat, xotira, intilish, qiziqish, sezgi kabi ruxiy protsesslar.
- D. Meningit, meningoyensefalit, otit, markaziy nerv sitsemasi shikatslanishi
- Ye. Tugma yoki orttirilgn infeksiya, intoksikasiya va boshka omillar.

2. Kuzi ojiz bolalar necha guruxda ajratiladiq

- A. Kuzi ojiz bolalar, kur, yaxshi kura olmaydigan, kuzi xira bolalardir
- B. Tugilgandan kuzi ojiz va tugilgandan 3-yoshgacha bulgan davr ichida kurish kobiliyati buzilgan, keyinchalik kuzi kur bulgan bolalar.
- S. Kuzi ojizligi, ya`ni kurish nuksonlari zurayib boradigan va bir xil muxim turadigan buladi

D. Kuz olmasi, kovoklarining rivojlanmay kolgani, kuz kovoklari kaltaligi tufayli kuzning yumilmay turilishi, kuz kovogining nuksoni

Ye. Kuruv nervi atrofiyasi, gigiyenik talablarga rioya kilmaslik.

3. Kar va kulogi zaif eshituvchilar maktablari uchun surdo pedagog kadrlar tayyorlash nechanchi yildan boshlandiq

A. 1969-yildan boshlab

B. 1970-yildan boshlab

S. 1973-yildan boshlab

D. 1970-yildan boshlab

Ye. 1980-yildan boshlab

4. Kulogi ogirlikning darajalari nechtaq

A. 4ta

B. 2 ta

S. 3 ta

D. 5 ta

Ye. 7 ta

5. Korreksion pedagogika fanining kaday tarmoklarini bilasizq

A. Surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofreno, pedagogika, logopediya

B. Tiflopedagogika, pedagogika, anatomiya, maxsus pedagogik

S. Oligofrenopedagogika, pedagogika tarixi, nevropatologiya

D. Anatomiya, psixopatologiya, pedagogika tarixi, surdopedagogika

Ye. Maxsus psixologiya va psixodiagnotsika, logopediya, umumiy fiziologiya

6. Korreksion pedagogika fani kaysi fanlar bilan uzviy alokadaq

A. Logopediya, tilshunoslik, anatomiya, nevropatologiya, umumiy fiziologiya

B. Otalarologiya, nevropatologiya, psixopatologiya, pediatriya, umumiy maxsus psixologiya va psixodiagnotsika

S. Psixopatologiya, tibbiyot fanlari, tilshunoslik va psixolingvitsika, maxsus psixologiya va psixodiagnotsika

D. Biologiya, anatomiya, oligofreno, pedagogika, tiflopedagogika

Ye. Logopediya, psixolingvitsika, biologiya, psixopatologiya

Glossariy

Genetik – irsiy omillar, Daun-xromosomolar nisbatining buzilishi.

Asfiksiya – bolaning kindikka uralib bugilib kolishi.

Anomaliya-jism yoki ruhiy rivojlanishning umumiy normalaridan ancha og`ish.

Anomal bolalar-normal ruhiy va jismoniy rivojlanishda buzulishlar bo`lgan bolalar.

Ularni yengib o`tish maxsus uchun maxsus metodlar talab qilinadi.

Adabiyotlar

1. *R.M.Boskis*. Uchitelyu o detyax s narusheniyami sluxa. M., "Prosvesheniye", 1987.

1. *M. I.Zemsova*. Uchitelyu odetyax s narusheniyami zreniya. M., 1973.

2. *A. G. Litvak* Tiflopsixologiya. M., 1985.

4. *N.D.Yarmachenko*. Problemi kompensatsii gluxoti. Kiyev. 1975. s. 148163.

5. *Osnovi obucheniya i vospitaniya anomalnix detey.* (Pod red. A. I. Dyachkova.)M., "Prosvesheniye", 1965, s. 3848,65.

1. *Defektologicheskiy slovar.* M., 1970.

2. *R. Shomahmudova*. To`g`ri talaffuzga o`rgatish va nutk o`stirish. T., Uzinkomsentr, 2002.



3- Mavzu: SENSOR NUQSONLI BOLALAR



UMUMIY O'QUV MAQSADLARI

Ta'limiy: Talabalarda sensor nuqsonli bolalar toifalari haqida nazariy bilimlarni berish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Tarbiyaviy: Talabalarning jamoada, kichik guruhlarda va individual ishlash qobiliyatlarini shakllantirish, kasbga bo'lgan ishlarini ortirish

Rivojlantiruvchi: Talabalarda erkin fikrlash va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish.



Asosiy ma lumotlar



Ko'rish bolaning xayotiy faoliyatida va rivojlanishida muxim ahamiyatga ega. Ko'rishdagi nuqsonlar bolaning ruxiy, jismoniy rivojlanishida ikkilamchi nuqsonlar kelib chiqishiga olib keladi. Tiflopedagogika fanida ko'rish nuqsoni darajasiga xamda o'quv materialni idrok qilishga ko'ra quyidagi guruxlar farqlanadi.

A. Ko'r va deyarli ko'r(qisman ko'ruvchi) bolalar. Ko'rish o'tkirligi 0 dan 0,004gacha. Bu bolalar umuman ko'rmaydilar, ko'rish imkoniyati kam saqlangan. Mashqulotlarda ular asosan o'quv materialini sezish, eshitish idroki asosida o'zlashtiradilar. Brayl tizimi bo'yicha o'qiydi va yozadilar. Ba'zi bir bolalar saqlangan ko'rish imkoniyatidan o'qish va yozishda foydalanishlari mumkin.

B. Zaif ko'ruvchi bolalar. Zaif ko'ruvchi bolalarning ko'rish o'tkirligi tuzatish(korreksiya) ko'zoynaklari bilan 0,06 dan 0,09 gacha. Bu bolalarda odatda ko'rishda murakkab nuqsonlar kuzatiladi. Ko'rish o'tkirligi patsligi bilan bir qatorda ayrim bolalarda ko'rish maydoni toraygan, fazoviy idrok buzilgan bo'lishi xam mumkin. Bularning barchasi o'quv materialini idrok etish, o'zlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu toifadagi boalar maxsus sharoitda, maxsus usul, uskunalar, texik va optik vositalar yordamida o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

V.Zaif ko'ruvchi bolalar. Ko'rish o'tkirligi tuzatish ko'zoynaklari bilan 0.1dan 0,3-0,4gacha. Ma'lum sharoitlarda ular ko'rish orqali erkin o'qib, yozishlari mumkin, buyumlarni ko'rib idrok etadilar, katta fazoviy doirada ko'rib mo'ljal oladilar.



Ko'rish analizatori yordamida dunyoni idrok etish bolaning psixik rivojlanishida muqim ahamiyatga ega. Tevarak-atrof qaqidagi eng kuchli taassurotlar ko'z bilan idrok etiladi. Bola ko'rish qobiliyati orqali narsalarning rangi, shakli, qajmi, qarakati, uzoq-yaqinligi, fazodagi o'rni qaqida tasavvurga ega bo'ladi.

2. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talaba soni: 26 nafar
Mashg`ulot shakli	Ma`ruza
Maruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ko`rish analizatorida nuqsonlari bor bolalar. 2. Tiflopedagogika ko`zi ojiz bolalarning ta'lim tarbiyasi bilan shuqullanadigan fan. 3. Ko`r va zaif ko`ruvchi bolalar. 4. Ko`rishga aloqador nuqsonlarning ludshi chiqish sabablari, turlari va ko`zi ojizlikning oldini olish yo'llari. 5. Ko`zi ojiz bolalar uchun tashkil etilgan muassasalar.
Uquv mashg`ulotining maksadi: Talabalarga o`quv kursi haqida to`liq ma`lumot berish.	
Pedagogik vazifalar	Uquv faoliyati natijalari
2. Sensor nuqsonli bolalarhaqida ma`lumot berish.	➤ Sensor nuqsonli bolalar haqida boshlangich ma`lumotga ega buladi.
➤ Ko`rishga aloqador nuksonlar kelib chiqish sabablari degan savolga javob berish.	➤ Ko`rishga aloqador nuksonlar kelib chiqish sabablarini tushunib oladi
➤ Kar, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bo`lib qolgan bolalarni ukitishdan maksad nimadan iboratligini bilish.	➤ Kar, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bo`lib qolgan bolalarni ukitishdan maksadi va vazifalarini sanab bera oladi
➤ Oligofren bolalar ularning tavsifi xakida bilimga ega bulish.	➤ Oligofren bolalardagi nuksonlarni oldini olish, bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiyalash xakida bilim va tasavvurga ega buladi.
➤ Ko`zi ojiz bolalar uchun O`zbekistonda kaday muassasalar tashkil etilganligi xakida tushuncha xosil kilish	➤ Ko`zi ojiz bolalar uchun inklyuziv ta`lim, ijtimoiy adabtatsiya, reabilitatsiya ishlarining uzaro farkini ajratish imkoniyatiga ega buladi.
Ta`lim metodlari:	Ma`ruza, namoyish etish, savol-javob, guruxlarda ishlash, test.
Ta`lim vositalari:	Ma`ruzalar matni, marker, doska, skotch, vatman, tarkatma materiallar, doska,kodoskop.
Ta`lim shakli:	Frontal, jamoaviy ish.
O`qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalar Bilan ta`minlangan va jamoaviy ishlashga muljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash:	Savol – javob, nazorat savollari.

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat boskichlari, vahti	Faoliyat mazmuni	
	Uqituvchi	Talabalar
1 – bosqich: Kirish qismi (15 min)	1.1. Ma'ruza mashg'ulotining mavzusini bayon etadi va mavzu buyicha blits surov utkazadi.	Savol – javobda ishtirok etadi.
	1.2. Tarkatma materiallarni tarkatadi. Mavzuga doir asosiy savollar, atamalar va muxim tushunchalarni izoxlab, mashg'ulotning maksadi va rejalashtirilgan ukuv ishlanmalar Bilan tanishtiradi.	Tinglashadi.
	1.3. Mavzu bo'yicha savol - javob o'tkazadi.	Savol – javobda ishtirok etishadi.
2-bosqich Asosiy qism (55min)	<ul style="list-style-type: none"> ➤ 2.1. Talabalarga quyidagi savol va topshiriklarga o'ylab javob berish taklifini kiritadi. ➤ Sensor nuqsonli bolalar bilan inklyuziv integratsion ta'lim qanday tashkil etiladiq ➤ Ko'ruv nuqsonlarining qaysi turlarini bilasiz ➤ Ko'ruv nuqsonlarining kelib chiqish sabablari nimalardan iborat ➤ Ko'ruv nuqsonlari bor bolalar qaerda tarbiyalanishi zarur ➤ Ko'rish analizatorining ahamiyati nimada ➤ Ko'rishdagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari nimada ➤ Ko'rish qobiliyati zaif bolalar bilan ommaviy maktab va bogchalarda olib boriladigan ishlarni tariflab bering. 	Savollarga javob berishadi
	➤ Alohida Yordamga muhtoj bolalar toifalari mavzusida savol - javob otkazadi	Savol - javobda ishtirok etishadi
	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Reja boyicha ma`ruzaning mazmuni Pezentatsiya asosida yoritadi. ➤ Talabalar 4 ta kichik guruxlarga bulinadi va ularga mavzuga doir test savollari xamda topshiriklarni tuzish vazifasi beriladi. 	
	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Gurux ishtirokchilaridan biri prezentatsiya kiladi. ➤ Prezentatsiya jarayonida talabalar Bilan birgalikda xar bir guruxning javoblari taxlil kilinib, kamchiliklari tuldiriladi. 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Gurux sardorlari chikib uz javoblarini sharxlashadi. ➤ Ekspert guruxi a'zolari javoblar mazmunini tuldirishadi va baxolashda ishtirok etishadi.
3-boskich Yakuniy kism (10 min)	➤ Mazuni yakunlab, umumlashtirib, xulosa beradi.	➤ Xulosa yozib boriladi
	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Bajarilgan ishlar baxolanadi. ➤ Uyga vazifa sifatida Aloxida yordamga muxtoj bolalardagi nuksonlarni urganib kelish topshirigi beriladi. 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Ekspert sifadida ishtirok etishadi ➤ Topshirikni yozib oladilar.



Ma'lumki, ko'rish analizatori nurlarni qabul qiluvchi qism-ko'z olmasi (soqqasi) va uning yordamchi apparatidan ko'zga tushgan tasvirni avval po'tsloq otsi markazlariga, keyin esa oliy ko'ruv markazlari joylashgan katta miya po'sloqiga (yensa bo'laklariga) yetkazib beradigan o'tkazuvchi yo'llardan tashkil topgan. Ana shu analizatorning qar qanday qismlaridagi o'zgarishlar bolaning ko'rish qobiliyatiga albatta ta'sir ko'rsatadi. Tiflopedagogikada ko'zi ojiz bolalar ko'r (so'qir), yaxshi ko'ra olmaydigan, ko'zi xira, zaif ko'ruvchi bolalar guruhiga bo'linadi. Ko'r bolalarning ko'rish qobiliyati keskin kamaygan (total ko'rlik) yoki korreksiya qo'llanilganida (ko'zoynak tutilganda) qam ko'rish o'tkirligi 0,04 gacha pasaygan, ya'ni bunday bolalar amalda ko'r bo'ladi. Zaif ko'ruvchi bolalarda ko'rish o'tkirligi 0,05 dan to 0,4 gacha bo'lishi mumkin. Ushbu guruxdagi bolalar tevarak-atrofni ko'rish analizatori orqali idrok etadi.

Ko'rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablariga ko'ra ikki guruxga ajratiladi.

Ko'rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablariga ko'ra tuqma va orttirilgan bo'ladi. Tuqma nuqsonlar sabablari orasida irsiy kasalliklar (masalan, tuqma kataraktaning ba'zi shakllari va boshqalar), xomilador ayolning toksoplazmoz, qizilcha kasalliklari bilan oqrishi, xomila ko'rish organlarining embrional rivojlanish paytda zararlanishi, miya o'smasi va shu kabi kasalliklar katta rol o'ynaydi.



Orttirilgan ko'rish anomaliyalari hozirgi kunda nisbatan kam uchraydi. Aholiga davolash-profilaktika, oftalmologiya yordamining yaxshilangani tibbiyot soqasidagi katta yutuqlar qo'lga kiritilgani munosabati bilan zaif ko'ruvchi bolalar ancha kamaydi. Traxoma, chechak, so'zak, ko'z sili, skarlatina va boshqa kasalliklar oqibatida bolalarning ko'r yoki zaif ko'ruvchi bo'lib qolisalariga deyarli tamomila barqam berildi

Ko'rish qobiliyatining pasayib borishi

Ko'z ojizligi, ya'ni ko'rish nuqsonlari zo'rayib boradigan va bir xil turadigan (muqim) bo'ladi. Zo'rayib boradigan xili kun sayin oqirlashib, bora-bora ko'rlikka olib keladi. Muqim xili esa turg'un bo'ladi, bolaning ko'rish darajasi doim bir xilda turaveradi. Ko'rish qobiliyatining zo'rayib boradigan zaifligi, ko'ksuv, ya'ni glaukoma kasalligi (ko'z ichki bosimining ko'tarilib ketishi) ko'ruv nervi atrofiyasi, to'r parda (ko'zning yoruqlikni qabul qiladigan qismi) ditsrofiyasi (aynishi) ga boqliq bo'lib, bolaning qar qanday rivojlanish davrida vujudga kelishi mumkin.

Ko'zi ojiz, so'qir bolalar ko'r tug'ilgan va ko'r bo'lib qolgan bolalar deb ikki guruhga ajratiladi

Birinchi guruhga tuqilishdan ko'zi ojiz va tug'ilganidan so'ng to uch yoshgacha bo'lgan davr ichida ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar kiritilsa, ikkinchisiga keyinchalik ko'zi ko'r bo'lib qolgan bolalar kiritiladi, bunday bolalar xotirasida ko'rish tasavvurlari qolgan bo'ladi. Ko'rish qobiliyatining oqir shakldagi buzilishlari bolaning qarakterida, psixikasida ikkilamchi asoratlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Ko'rish nuqsonlarining eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri-refraksiya anomaliyalaridir. Ularga yaqin ko'rish (miopiya)ning turli darajasi, gipermetropiya, uzoqni ko'rish yoki yaqin ko'rish atsigmatizmi kiradi.



Refraksiya anomaliyalari, ya'ni nurlarni sindiruvchi fokus ko'z turi oldida bo'ladi. Yaqin ko'rishda (blizorukots) bola uzoqdagi buyumlarni noaniq ko'radi. Yaqin ko'rishda qarita, jadvallar, sayr vaqtida uzoqdagi buyumlarni kuzatish, o'qish, yozish, mexnat darslarida bajariladigan ishlar, rasmlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Yaqin ko'rish ko'zoynaklar yordamida to'qrilanadi. Yaqin ko'ruvchi bollarga boshni uzoq egib turish, tez engashish, oqir ko'tarish, tana silkinishlari, mayda obeklar bilan uzoq ishlash taqiqlanadi. Uzluksiz ish 15 daqiqa. Xira yoruqlik man etiladi.

Yosh go'daklarda ba'zan ko'zga oid tug'ma nuqsonlar xam uchraydi:

1,2,3

Kriptoftalm- ko'z olmasi, qovoqlarining tuqilishdan rivojlanmay qolgani;

Mikroblefaron-ko'z qovoqlar kaltaligi tufayli ko'zning yumilmay turishi,

- B.Shoumarov, K.K.Mamedov. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixoshch sh>xususiyatlari va differensial diagnostikasi. Toshkent, O'zbekiston maorif vazirligi, 1987.
- K.K. Mamedov, B.Shoumarov, V.P.Podobed. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar xaqida. T., 1999.



6- Mavzu: Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar.



UMUMIY O'QUV MAQSADLARI

Ta'limiy: Talabalarda psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida nazariy bilimlarni berish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Tarbiyaviy: Talabalarning jamoada, kichik guruhlarda va individual ishlash qobiliyatlarini shakllantirish, kasbga bo'lgan qiziqishlarini ortirish

Rivojlantiruvchi: Talabalarda erkin fikrlash va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish.



Asosiy ma'lumotlar



Ulgurmovchi o'kuvchilar orasida psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar ham uchrab turadi. Ularning bilish faoliyati intellekti, mantiqiy tafakkuri, idroki, xotirasi, ixtiyoriy diqqati, ish qobiliyati va boshqa xislatlariga birinchi o'rinda markaziy nerv sistemasining kasalliklari va pedagogik qarovsizlik, oilaviy mojaro, noto'g'ri tarbiya o'oshilishi natijasida psixik rivojlanishi sustlashadi. Bunday bolalarda hissiyot, iroda borasidagi kamchiliklar birlamchi, a'liy zaiflik esa ikkilamchi hodisa bo'lib hisoblanadi.

T.A.Vlasova, M.S.Pevzner, V.I.Lubovskiy, T.V.Yegorova, K.S.Lebedinskaya, N.A.Nikashina, K.K.Mamedov, B.Shoumarov, N.A.Sipina, RD.Triger va boshqa olimlarning ma'lumotlariga ko'ra boshlangich sinf o'quvchilarining 5, 8 foizini ana shunday bolalar tashkil etadi.

a. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Vaqt – 4 soat	Talaba soni: 26 nafar
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza
Ma'ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Psixik rivojlanishi sustlashganlik klinik-psixologik jixatdan xillari (konstitutsion, somatogen, psixogen, serebral) kelib chiqish sababalari. 2. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning boshqa yordamga muxtoj bolalar va sog'lom tengdoshlaridan farqi, ularning tavsifi. 3. Psixik rivojlanishi sust bolalar uchun tashkil etilgan muassasalar ularning o'ziga xosligi. 4. Motor nuqsonli bolalar ularning tavsifi.
O'quv mashg'ulotining maksadi: Talabalarga o'quv kursi xakida to'liq ma'lumot berish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
5. Psixik rivojlanishi sustlashganlik klinik-psixologik jixatdan xillari (konstitutsion,	➤ Psixik rivojlanishi sustlashganlik klinik-psixologik jixatdan xillari (konstitutsion,

somatogen, psixogen, serebral) kelib chiqish sabablarini aytib berish.	somatogen, psixogen, serebral) kelib chiqish sabablari xakida boshlangich ma'lumotga ega buladi.
➤ Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning boshqa yordamga muxtoj bolalar va sog'lom tengdoshlaridan farqi, ularning tavsifiq degan savolga javob berish.	➤ Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning boshqa yordamga muxtoj bolalar va sog'lom tengdoshlaridan farqi, ularning tavsifini tushunib oladi
➤ Psixik rivojlanishi sust bolalar uchun tashkil etilgan muassasalar ularning o'ziga xosligi nimadan iboratligini bilish.	➤ Psixik rivojlanishi sust bolalar uchun tashkil etilgan muassasalarda bolalarni ukitishdan maksadi va vazifalarini sanab bera oladi
➤ Motor nuqsonli bolalar ularning tavsifi xakida bilimga ega bulish.	➤ Motor nuqsonli bolalardagi nuksonlarni oldini olish, bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiyalash xakida bilim va tasavvurga ega buladi.
Ta'lim metodlari:	Ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, guruxlarda ishlash, test.
Ta'lim vositalari:	Ma'ruzalar matni, marker, doska, skotch, vatman, tarkatma materiallar, doska, kodoskop.
Ta'lim shakli:	Frontal, jamoaviy ish.
O'qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalar Bilan ta'minlangan va jamoaviy ishlashga muljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash:	Savol - javob, nazorat savollari.

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat boskichlari, vakti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1 – bosqich: Kirish qismi (15 min)	1.1. Ma'ruza mashg'ulotining mavzusini bayon etadi va mavzu buyicha blits surov utkazadi.	Savol - javobda ishtirok etadi.
	1.2. tarkatma materiallarni tarkatadi. Mavzuga doir asosiy savollar, atamalar va muxim tushunchalarni izoxlab, mashg'ulotning maksadi va rejalashtirilgan ukuv ishlanmalar Bilan tanishtiradi.	Tinglashadi.
	1.3. Mavzu buyicha savol - javob o'tkazadi.	Savol - javobda ishtirok etadi.
	2.1. Talabalarga kuyidagi savol va topshiriklarga uylab javob berish taklifini kiritadi. 1. Psixik rivojlanishi sust bolalar boshqa anomal bolalardan nima bilan farq qiladiq 2. Psixik rivojlanishi sust bolalarning qaysi guruhlari mavjudq 3. Psixik rivojlanishdagi sustlik nimadan kelib chikadiq 4. Psixik rivojlanishi sust bolalar kayerde ta'lim olishlari kerak va nima uchunq	Savollarga javob berishadi
	➤ Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar toifalari mavzusida savol - javob o'tkazadi	Savol - javobda ishtirok etadi.





2-bosqich Asosiy qism (55 min)	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Reja buyicha ma'ruzaning mazmuni prezentatsiya asosida yoritadi. ➤ Talabalar 4 ta kichik guruxlarga bulinadi va ularga mavzuga doir test savollari xamda topshiriklarni tuzish vazifasi beriladi. 	
	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Gurux ishtirokchilaridan biri prezentatsiya kiladi. ➤ Prezentatsiya jarayonida talabalar Bilan birgalikda xar bir guruxning javoblari taxlil kilinib, kamchiliklari tuldiriladi. 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Gurux sardorlari chikib uz javoblarini sharxlashadi. ➤ Ekspert guruxi a'zolari javoblar mazmunini tuldirishadi va baxolashda ishtirok etishadi.
3-bosqich Yakuniy qism (10 min)	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Mazuni yakunlab, umumlashtirib, xulosa beradi. ➤ Bajarilgan ishlar baxolanadi. ➤ Uyga vazifa sifatida Aloxada yordamga muxtoj bolalardagi nuksonlarni urganib kelish topshirigi beriladi. 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Xulosa yozib boriladi ➤ Ekspert sifatida ishtirok etishadi ➤ Topshirikni yozib oladilar.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar aqliy darajasi jihatidan asosan ikki guruhga bo`linadi:

- 1.Engil nuqsoni bor bolalar — bular maxsus sharoitda 1—3 yil ta'limtarbiya olganlaridan keyin y?ishni ommaviy maktabning tegishli sinfida davom ettirishi mumkin.**
- 2.Psixik riyujlanishi sezilarli darajada orqada qolgan bolalar — ular maktabni bitirguniga qadar maxsus sharoitda o`qitilishi kerak. Bunday bolalar maktab dasturini sog`lom tengdoshlari qatori o`zlashtira olmaydi. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarni ommaviy maktabda hamma qatori o`qtish ta'lim jarayoniga ham salbiy ta'sir ko`rsatadi**

Psixik sust rivojlanganlik

- 1) konstitutsional;
- 2) somatogen;
- 3) psixogen;
- 4) serebral.



Rivojlanishdagi bu kamchilikka bola onasining homiladorligi davrida qalqonsimon bezlari faoliyatining buzilganligi, yurak tomir kasalliklari sabab b`yilishi mumkin. Ilk yoshda har xil surunkali kasalliklar bilan tez-tez kasallanib turish natijasida bola yaxshi o`sis unmay qolipsh mumkin, bu esa o`z navbatida Psixik jihatdan rivojlanishida orqada qolishga, kechikishga olib keladi, sust rivojlanganlikning somatik shakli deb shunga aytiladi.

Psixik sust rivojlanganlikning psixogen shaklida bola erta yoshligidan nokulay, nogo`g`ri sharoitda tarbiyalanadi va shu tarbiyaning salbiy tomonlari Psixik rivojlanishiga ta'sir o`tkazgan bo`ladi.

.


Psixik sust rivojlanganlikning psixogen shakli

1,2,3

Bola tarbiyasi bilan mutlaqo shug'ullanmaslik, uni butunlay o'z holiga tashlab qo'yish, bunda bolalarda burch va mas'uliyat hissi shakllanmaydi. Aql idrokining rivojlanishi, kiziqishlari, bilish faoliyati, his tuyg'u va iroda etishmasligi ham qo'shiladi.

Bolani har tomonlama erkalatish, etarli mustakil faoliyatga o'rgatmaslik tashabbus-korlik, mas'uliyat hissini shakllantirmaslik, bolani "oila erkasi" qilib o'stirish, haddan tashqari uning ko'ngliga qarab ish tutish natijasida ham bola psixik rivojlanishida bir qadar orqada qolishi mumkin.

Bolaga nisbatan ko'pol munosabatda bo'lish, jismoniy jazolash, qattiqqo'llik qilish, ota-onalarning alkogolizmga aloqador tajovuzkorona munosabatlari bolani mudom asabiylashtirib, Psixik rivojlanishdan orqada qolishga sabab bo'ladi.

 Psixik sust rivojlanganlikning eng murakkab va keng tarkalgan psixogen shaklida bosh miyaning kasalligiga, yaxshi etilmaganiga aloqador yzgarishlar kuzatiladi.

Olimlarimizning bergan ma'lumotlariga ko'ra, bunday bolalarning 50 foizida nerv sistemasida organik nuqsonlar bo'ladi. Bu narsa ularning his – tuyg'u, irodaviy holatlari taraqqiy etmaganligiga, asosan organik infantilizm tarzida namoyon bo'ladi.

1. **Affektiv o'zgarishlar** — kayfu ruhiyatning aytarli sababsiz aynib turishi, tajovuzkorlik qilishga moyil bo'lish bilan xarakterlanadi.

Infantilizm

Kayfiyati — ruhiyati o'zgarib, aksari, ko'tarinki ruxda yuradigan bolalar, ularda yzlaridan yosh bolalarga xos xislatlar saqlangan bo'ladi. Ko'proq kayfiyati past boqlib, ma'yus tortib yuradigan bolalar, ularda vazifani mustaqil hal qila olmaslik, tashabbus ko'rsata olmaslik, qo'rqish holatlari ko'riladi.

Infantilizm

1. Tserebral-endokrin infantilizm. Bunda asosan ichki sekreiiya bezlari faoliyati buzilgan bo'ladi. Natijada bolalarda his-tuyg'ular yaxshi rivojlanmay, nevropatiya holatlari yuzaga keladi. Bolaning uyqusi, ishtahasi yaxshi bo'lmaydi, dispepsiya holatlariga moyillik paydo bo'ladi.

2. Tserebrastenik holatlar, bular ham tez-tez uchrab turadi. Markaziy nerv sistemasi tez charchaydi, neyrodinamik o'zgarishlar kuzatiladi. Natijada akliy qobiliyati susayib, xotira pasayadi, diqqati tarqoq boqilib qoladi, tez ta'sirlanish, Qiz bolalarda yig'lokilik, o'g'il bolalarda haddan tashqari qo'zg'aluvchanlik kuzatiladi, bola ish qobiliyati past, arzimagan narsagatez charchaydigan bo'lib qoladi.

3. Tabiatan nevrozga yaqin holatlar, bular qorong'idan, yakkalikdan qo'r'ish, o'zi va atrofdagilar sog'lig'i uchun xavfsirash, giperkinezlar, duduqlanish, enurez kabi hodisalar bilan birga ifodalanadi.

4. Psixomotor ko'zg'aluvchanlik — asosan o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi. Serharakatlik, diqqatning tarqokligi, tez chalg'ish bunga xarakterlidir.

5. Affektiv o'zgarishlar — kayfu ruhiyatning aytarli sababsiz aynib turishi, tajovuzkorlik qilishga moyil bo'lish bilan xarakterlanadi.

6. Epileptik buzilishlar — har xil ko'rinishlarda tutqanoq tutib turishi bilan namoyon bo'ladi.

7. Psixopatik o'zgarishlar — akliy faoliyatga rag'bat pastligi, o'qishga salbiy munosabatda bo'lish, o'g'rilik qilish (kleptomaniya), ko'proq yolg'on gapirish kabi salbiy xislatlarni o'z ichiga oladi.

8. Apatika dinamik buzilishlar — tashabbuskorlik pasayishi, akliy faoliyat sustligi, haddan tashqari emotsional bo'shanglik bilan xarakterlanadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

Ekspert varagi № 1

1. Psixik rivojlanishi sust bolalar boshqa anomal bolalardan nima bilan farq qiladi?

Ekspert varagi № 2

2. Psixik rivojlanishi sust bolalarning qaysi guruhlari mavjud?

Ekspert varagi № 3

3. Psixik rivojlanishdagi sustlik nimadan kelib chikadi?

4. Psixik rivojlanishi sust bolalar qaerda ta'lim olishlari kerak va nima uchun?

Test topshiriklari

1. Akli zaiflikni belshilashda kandy mezonlarni tafovut kilish kerak.

A. «aklan-zaif», «oligofren», «demensiya»

B. klinik, psixologik va pedagogik

S. debil, imbetsil, idiot

D. konsitutsional va serebral

2. Birinchi marta «akli zaiflik» atamasini fanga kiritgan olim.

A. M.S.Pevzner

B. G.Ye.Suxareva

S. F.Platter

D. J.Yeskriop

Ye. A, b javoblar tugri

3. Uzbek tilida chop etilgan Korreksion pedagogika va logopediya asoslari ukuv kullanmasini muallifi kim.

A. V.S. Raxmonova

B. L.R.Muminova

S. M. Ayunova

D. X. Pulatova

4. Nuksonli bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shugullanadigan muassasalar nechanchi yillardan keyin jadal suratda rivojlandi.

A. 1918-yillardan keyin

B. 1920-yillardan keyin

S. 1923 yillardan keyin

D. 1925-yillardan keyin

Ye. 1900-yillardan keyin

5.«Kamol topishda kamchiligi bulgan bolalar» kitobining muallifi kim.

A. M.S.Pevzner

B. A.S.Makarenko

S. T.A.Vlasova

D. T.A. Vlasova, M.S.Pevzner

Ye. A-javob tugri

6. Kamolotida tutilish ulgan bolalarni pedagogik korreksiyalash orkali ular

A. fikrlay oladilar;

B. bir maksadga yo`naltirilgan xarakterat kiladilar

S. uz mexnat natijalariga uz itsak xoxishlari, imkoniyatlariga tankidiy yondoshishga kodirlar

D. S-javob tugri

Ye. Barcha javoblar tugri

Glossariy

Serebral –endokrin infatilizm- ichki sekreitsiya bezlari faoliyatining buzilishi.

Affektiv uzgarishlar- kayfiyat, ruxiyatning aytarli sababsiz ajralib turishi.

Serebral-endokrin infantilizm. - Bunda asosan ichki sekreitsiya bezlari faoliyati buzilgan bo`ladi.

Serebrastenik holatlar, bular ham teztez uchrab turadi. Markaziy nerv sistemasi tez charchaydi, neyrodinamik o`zgarishlar kuzatiladi.

Psixomotor ko`zg`aluvchanlik — asosan o`g`il bolalarda ko`proq uchraydi.

Affektiv o`zgarishlar — kayfu ruhiyatning aytarli sababsiz aynib turishi, tajovuzkorlik qilishga moyil bo`lish bilan xarakterlanadi.

Psixopatik o`zgarishlar — akliy faoliyatga rag`bat pastligi, o`qishga salbiy munosabatda bo`lish, o`g`rilik qilish (kleptomaniya), ko`proq yolg`on gapirish kabi salbiy xislatlarni o`z ichiga oladi.

Epileptik buzilishlar — har xil ko`rinishlarda tutqanoq tutib turishi bilan namoyon bo`ladi.

Apatika dinamik buzilishlar — tashabbuskorlik pasayishi, aqliy faoliyat sustligi, haddan tashqari emotsional bo`shanglik bilan xarakterlanadi.

Adabiyotlar

- 1.S.Sh.Aytmetova. Yordamchi maktab o`kuvchilarining psixik rivojlanish xususiyatlari. T., "O`qituvchi", 1984.
- 2.K.Mamedov, F. Po`latova Oligofrenopedagogika. T., 1996.
- 3.Sokolova Vospitaniye i obucheniye umstvenno otstalnx doshkolnikov. M, 1985.
- 4.N.P.Vayzman. Psixologiya umstvenno otstalgx detey. M., 1997.
- 5.S. D. Zabramnaya. Psixologopedagogicheskaya diagnostika umstvenno otstalogo. M., 1995.
- 6.AA.Katayeva, YeA. Strebleva. Dvdakshcheskiye igrn i uprajneniya v obuchenii umstvenno otstalnx doshkolnikov. Kniga dlya uchitelya. M., 1993.
- 7.V.S.Rahmonova. DefekgologtayulogopediyaasoslariT, 1991.
- 8.Deti s zaderjkoy psixicheskogo razvitiya. T.A.Vlasova, N.A.Sipina tahriri ostida. M., 1984.
- 9.Maorif vazirligining "Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun maxsus maktabinternatlar ochish" to`g`risidagi 1981 yil 3 iyul qarori.
- 10.B.Shoumarov, K.K.Mamedov. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik xususiyatlari va differensial diagnostikasi. Toshkent, O`zbekiston maorif vazirligi, 1987.
- 11.K.K. Mamedov, B.Shoumarov, V.P.Podobed. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar xaqida. T., 1999.



7- Mavzu: HAKKAT-TAYANCH A'ZOLARI JAROHATLANGAN BOLALAR



UMUMIY O'QUV MAQSADLARI

Ta'limiy: Talabalarda tayanch-xarakat a'zolari jaroxatlangan bolalar xaqida bilim, ko'nikma va malakalarini hosil qilish;

Tarbiyaviy: Talabalarning jamoada, kichik guruhlarda va individual ishlash qobiliyatlarini shakllantirish, kasbga bo'lgan qiziqishlarini ortirish

Rivojlantiruvchi: Talabalarda erkin fikrlash va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish.



Asosiy ma'lumotlar



Xar qanday ota-ona o'z oilasida farzandining sog'lom jismonan baquvvat, ruhan tetik, fikrlash qobliiyati teran, iymon-etiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur bo'lib etishishni, har tomonlama kamol topishini istaydi, Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq respublikamizda sog'lom avlodni tarbiyalashga katta e'tibor qaratildi. "Barkamol" avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu masalaga ustivor vazifa deb qaralmoqda.

Mustaqil Vatanimizning birinchi ordeni "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya jamg'armasining tuzilganligi, 2000 - yilni "Sog'lom avlod yili", 2001 yilni "Ona" va bola yili", 2010 yilning "Barkamol avlod" yili, deb e'lon qilinganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Kelayotgan yangi 2014 yilning mamlakatimizda "Sog'lom bola" yili deb e'lon qilinishi davlatimizning ertangi kuni, uning muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljishi, gullab yashnashi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan avlodning sog'lom bo'lishiga, onalik va bolalikning qay darajada muhofaza qilinishiga bog'liqligini anglatadi.



Harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar perebral falaji, poliomielit (shol kasalligi asorati), harakat tayanch a'zolarining turli tug'ma va orttirilgan deformatsiyasi artrogripoz, oyoq qo'llarning majruhligi, axondroshgaziya yoki xondrodistrofiya — tana, bo'yin, boshning normal rivojlanayotgan bir paytida tug'ma oyoq yo'l suyaklari o'sishining orqada qolishi, miopatiya — mushak to'qimalarida modda almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan irsiy kasallikda mushaklar yaxshi qisqarmaydi, kishi ko'l oyoqni harakatta keltira olmaydi.



Harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalarning ko'pchiligida miya falaji kuzatiladi. Bolalar serebral falaj kasalligi hali etilmagan, shakllanib bo'lmagan miyaning kasalligidir. Onaning homiladorlik davrida ma'lum kasalliklar bilan kasallanishi, tug'ilish vaktidagi patologik o'zgarishlar, tugilgandan to bir yoshgacha davr ichida bola kasallanishi natijasida bosh miyaning harakat zonalari shikastlanadi, uning natijasida esa miyaning yaxlit etilishi kechikadi va buziladi. Oqibatda bolaning umumiy hamda nutqiy motorikasi (harakatchanligi) faoliyati buziladi.

1.4. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Vaqt – 4 soat	Talaba soni: 26 nafar
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza
Ma'ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar serebral falaji, poliomyelit kasalliklari. 2. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bilan kompleks yondashgan holda olib boriladigan korreksion ishlar. 3. Mujassam nuqsonli bolalar (kar-ko'r-soqov bolalar). 4. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar uchun differensial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga o'quv kursi haqida to'liq ma'lumot berish.	
Pedagogik vazifalar	Uquv faoliyati natijalari
6. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar serebral falaji, poliomyelit kasalliklari kelib chiqish sabablarini aytib berish.	➤ Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar serebral falaji, poliomyelit kasalliklari kelib chiqish sabablari xakida boshlangich ma'lumotga ega buladi.
➤ Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bilan kompleks yondashgan holda olib boriladigan korreksion ishlarining tavsifiq degan savolga javob berish.	➤ Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bilan kompleks yondashgan holda olib boriladigan korreksion ishlarining tavsifini tushunib oladi
➤ Mujassam nuqsonli bolalar (kar-ko'r-soqov bolalar) ularning o'ziga xosligi nimadan iboratligini bilish.	1. Mujassam nuqsonli bolalar (kar-ko'r-soqov bolalar) uchun tashkil etilgan muassasalarda bolalarni ukitishdan maksadi va vazifalarini sanab bera oladi
➤ Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar uchun differensial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish xakida bilimga ega bulish.	➤ Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar uchun differensial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish. xakida bilim va tasavvurga ega buladi.
Ta'lim metodlari:	Ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, guruhlarda ishlash, test.
Ta'lim vositalari:	Ma'ruzalar matni, marker, doska, skotch, vatman, tarkatma materiallar, doska.
Ta'lim shakli:	Frontal, jamoaviy ish.
O'qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalar Bilan ta'minlangan va jamoaviy ishlashga muljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash:	Nazorat savollari.

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Uqituvchi	Talabalar
1 – bosqich: Kirish qismi (15 min)	1.1. Ma'ruza mashg'ulotining mavzusini bayon etadi va mavzu bo'yicha savol-javob o'tkazadi.	Savol - javobda ishtirok etadi.
	1.2. Tarqatma materiallarni tarkatadi. Mavzuga doir asosiy savollar, atamalar va muxim tushunchalarni izoxlab, mashg'ulotning maksadi va rejalashtirilgan uquv ishlanmalar bilan tanishtiradi.	tinglashadi.
	1.3. Mavzu buyicha savol - javob o'tkazadi.	Savol - javobda ishtirok etishadi.
2-bosqich Asosiy qism (55 min)	2.1. Talabalarga quyidagi savol va topshiriqlarga uylab javob berish taklifini kiritadi. 5. Harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bilan kompleks yondaprgan holda kandy korreksion ishlar amalga oshiriladiq 6. Harakat tayanch a'zolari jaroxatlangan bolalar nima uchun anomal bolalar kategoriyasidan biri sifatida o'rganiladiq 7. Harakat tayanch a'zolari jaroxatlangan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarinish o'ziga xosligi nimada 8. Mujassam nuksonli bolalar kategoriyasi boshka anomal bolalardan nimasi bilan farq kiladiq	Savollarga javob berishadi
	➤ Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar toifalari mavzusida savol - javob utkazadi	Savol - javobda ishtirok etishadi
	➤ Reja buyicha ma'ruzaning mazmuni prezentatsiya asosida yoritadi. ➤ Talabalar 4 ta kichik guruxlarga bo'linadi va ularga mavzuga doir test savollari xamda topshiriklarni tuzish vazifasi beriladi.	Kichik guruxlarda ishlash
	➤ Gurux ishtirokchilaridan biri prezentatsiya kiladi. ➤ Prezentatsiya jarayonida talabalar Bilan birgalikda xar bir guruxning javoblari taxlil kilinib, kamchiliklari tuldiriladi.	➤ Gurux sardorlari chikib uz javoblarini sharxlashadi. ➤ Ekspert guruxi a'zolari javoblar mazmunini tuldirishadi va baholashda ishtirok etishadi.
3-bosqich Yakuniy qism (10 min)	➤ Mazuni yakunlab, umumlashtirib, xulosa beradi.	➤ Xulosa yozib boriladi
	➤ Bajarilgan ishlar baholanadi. ➤ Uyga vazifa sifatida Aloxida yordamga muxtoj bolalardagi nuksonlarni urganib kelish topshirigi beriladi.	➤ Ekspert sifatida ishtirok etishadi ➤ Topshirikni yozib oladilar.



Prezidentimiz tomonidan "Sog'lom avlod" ruknidagi, maxsus yordamga muhtoj bo'lgap bolalarni sog'lomlashtirish, ularni sog'lom kishilar hatoriga qo'shish, ijtimoiy, moddiy jihatdan himoyalash, mehnatta, ijtimoiy g'ayotga moslashtirish masalalariga doir qator qarorlar, hujjatlar chiqarilmoqda, kabul qilinmoqda.


Kinesteziya

— tana yoki tana kislmlari harakatini sezish demakdir. Kinesteziya maxsus sezuvchi to`qimalar — proprioretseshorlar orqali sodir bo`ladi. Bu to`qimalar mushak, pay, bo`g`imlarda joylashgan bo`ladi. Ular oliy nerv sistemasiga tana, ko`l, oyoqlarnish holati haqida, mushaklarshshgi qiqrishi haqida ma'lumot beradi

Harakat tayanch azolari jarohatlangan bolalar

Harakat tayanch azolari jaroxatlangan bolalar uchun O`zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun, bog`cha va maktab yoshidagi bolalar uchun maxsus maktab-internatlar faoliyat ko`rsatmokda Ayrim bolalar umumta'lim ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktabda intefatsiyalashgan inklyuziv ta'limga jalb etilmoqda Maxsus muassasalarda barcha ta'lim-tarbiya ishlari korrektsion yo`nalishda amalga oshiriladi. Ko`prok xarakat funksiyalarini korrektsiyalashgan e'tibor beriladi.

Harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bilan maxsus muassasalarda harakat funksiyasigsh korrektsiyalash ishlari kompleks tarzda, ya'ni bolaga xar tomonlama ta'sir o`tkazish yo`li bilan amalga oshiriladi. Bunga tibbiy dori-darmonlar bilan davolash, fizioterapevtik, ortopedi uqalash massaj, davolovchi gimnastika, jismoniy tarbiya, mexnatga o`rgatish ishlari kiradi.



Tibbiy dori-darmonlar bilan davolash ishlari mushak tonusini pasaytirish, giperkinez majburiy harakatlarni kamaytirish, asab sistemasidagi kompensator jarayonining faolligini kuchaytirishga yo`naltiriladi.
Fizioterapevtik muolajalar mushak tonusini pasaytirishga, mushaklardagi qon aylanishini yaxshilashga haratiladi.
Ortopedik tadbirlar harakat- tayanch a'zolari, bo`yin, gavda harakatini yaxshilash, kerak bo`lsa zarur moslamalardan foydalanish, har bir bolani shaxsiy ortopedik rejimga rioya qilishga o`rgatishga qaratiladi.



Dunyodagi 500 million aholining 10 foizi nogironlardir. Shular jumlasiga mujassam nuqsonli anomal bolalar ham kiradi. Mujassam nusonli anomal bolalarda bir necha nuqson birgalikda kuzatiladi. Ular kompleksli nuqsonli bolalar kategoriyasi deb ham nomlanadi.

Onalar va bolalar salomatligini yaxshilash, nogironlikning oldini olish, ekologik muvozanatni yanada barqarorlashtirish yuzasidan mamlakatimizda mustaqilligimizning birinchi kundanok muayyan amaliy ishlar olib borilmoqda.



Mujassam nuqsonli maxsus yordamga muqhtojlar toifasiga karko`rsoqov bolalar, kar va aqlan zaif, ko`r va oligofren, harakat tayanch a'zolari jarohatlangan va ko`r yoki akdan zaif vab.k. kiradilar.



Oftalmologik yutuqlar, erda diagnostikaning yangi usullarining qo`llanishi, ko`rish organlari kasalliklarini davolash va korrekdiya qilish natijasida maxsus maktab o`quvchilarining kontingenti sezilarli darajada o`zgardi. Ko`r bolalar nisbatan kamaydi, ammo zaif ko`ruvchi bolalar soni ko`paydi. Ularning orasida maktab dasturini o`zlashtira olmaydigan bolalar yaqqol ko`rina boshlandi. Kompleks, ya'ni har tomonlama tekshirish, o`rganish natijasida ularning ko`rish qobiliyatining buzilishi bilan birga oligofreniya tipidagi akli zaiflik kam mavjudligi aniqlandi. Zaif ko`ruvchi va akli zaif bo`lgan bolalarni o`qitish va tarbiyalash ancha murakkab va o`ziga xosdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

Ekspert varagi № 1

1. Harakat tayanch a'zolari buzilgan bolalar boshqa toifadaga anomal bolalardan nima bilan farq qiladilar?
2. Ushbu bolalardagi nuqson nimadan kelib chiqadi?

Ekspert varagi № 2

1. Bolapar serebral falaji deganda nimani tushunasiz?
2. Harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bilan kompleks yondashgan holda kanda korreksion ishlar amalga oshiriladi?

Ekspert varagi № 3

1. Harakat tayanch a'zolari jaroxatlangan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining o`ziga xosligi nimada?

Ekspert varagi № 4

1. Harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar kaerda ta'lim tarbiya olishlari kerak?
2. Harakat tayanch a'zolari jaroxatlangan bolalar nima uchun anomal bolalar kategoriyasidan bnri sifatida o`rganiladi?

Test topshiriqlari

1. Anomal bolalarning kaday kategoriyalari mavjud?

A. Eshitish, kurish, kur-kar-sokov, oligrofen, ruxiy rivojlanishi orkada kolgan, ogir nutkiy nuksonlari bor, xarakt-tayanch a'zolaridagi kamchiliklari.

B. Kar, sokov, kulogi ogir, keyinchalik kulogi ogir bulib kolgan bolalar

S. Dikkat, xotira, intilish, kizikish, sezgi kabi ruxiy protsesslar.

D. Meningit, meningoyensefalit, otit, markaziy nerv sitsemasi shikatslanishi

Ye. Tugma yoki orttirilgn infeksiya, intoksikasiya va boshka omillar.

2.«Kamol topishda kamchiligi bulgan bolalar» kitobining muallifi kim?

A. M.S.Pevzner

B. A.S.Makarenko

S. T.A.Vlasova

D. T.A. Vlasova, M.S.Pevzner

Ye. A-javob tugri

3. Kamolotida tutilish ulgan bolalarni pedagogik korreksiyalash orkali ular

A. fikrlay oladilar;

B. bir maksadga yo`naltirilgan xarakat kiladilar

S. uz mexnat natijalariga uz itsak xoxishlari, imkoniyatlariga tankidiy yondoshishga kodirlar

D. S-javob tugri

Ye. Barcha javoblar tugri

4. Imkoniyati cheklangan insonlarga...kiradi

A. nogironlarga

B. ishyokmaslar

S. kariyalar

D. nafakaxurlar

Ye. Ishsizlar

Glossariy

Poliomelit – shol kasalligi asorati

Miyapatiya- mushak tukimalarida moda almashinuvida Bilan boglik bulgan irsiy kasalliklarda mushaklar yaxshi kiskarmaydi.

Ta'lim - bolaning bilim va kunikmalar bilan kurollantirish, ongiga va xulkiga ta'sir etish bilish faoliyatini rivojlantirish.

Tarbiya - bolalarda ilmiy bilimlar tizimini singdirish va buning natijasida har tomonlama shakllangan kishini tarbiyalash.

Korreksiya - tuzatish, yaxshilash degan ma'noni anglatadi. Nuksonli bolalarni psixik va jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni pedagogik metod va chora tadbirlar yordamida kisman yoki butunlay yukotish.

Adabiyotlar

- Defektologicheskiy slovar. M, "Pedagogika", 1970.
- *R.Shomahmudova, G.A.Soditsova, U.Yu. Fayziyeva* Oilada serebral falaj bo'lgan ilk yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ishlar. RTM, T., 1998.
- *LM Shshshsnna, O.V.Zasheujnskaya* i dr. Azbuka obsheniya SPb, 1998.
- *A.VAlapshin, B.P.Puzanov.* Osnovn defektologii. M, "Prosvesheniye", 1990.
- *A.I.Mesheryakoye.* Slepogluxonemme deti. M, 1974.
- *K.A.Semyonova, M.M.Maxmudova.* Meditsinskaya reabilitatsiya i sotsialnaya adaptatsiya bolnxx detskim serebralnsh paralichom. T., 1979.
- *L.O.Badalyan, L.T.Jurba, O.V.Timonina.* Detskiy serebralnny paralich. Kiyev, "Zdorove", 198X.
- *G.V.Dedyuxina, L.D.Moguchaya, T.A.Yanshsheva* Logopedicheskiy massaj i lechebnaya fizkultura s detmi 3—5 let, stradayushimi detskim serebralnsh paralichom. M., GnomPress, 1999.



8- Mavzu: LOGOPEDIYA FANI UNING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI



UMUMIY O'QUV MAQSADLARI

Ta'limiy: Talabalarda logopediya fani predmeti, maksadi va vazifalari xakida nazariy bilimlarni berish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Tarbiyaviy: Talabalarning jamoada, kichik guruhlarda va individual ishlash qobiliyatlarini shakllantirish, kasbga bo'lgan qiziqishlarini ortirish

Rivojlantiruvchi: Talabalarda erkin fikrlash va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish.



Asosiy ma'lumotlar



Logopediya (logos — soʻz, padeo tarbiyalash, oʻrgatish degan ma'noni anglatadi) — pedagogik fanlardan biri boʻlib, nutl kamchiliklari va ularning sabablarini oʻrganish, shuningdek, bularning oldini olish, borlarini bartaraf etish uchun maxsus ta'lim -tarbiya vositalari va metodlarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish masalalari bilan shugʻullanadi.

b. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi


Vaqt – 4 soat	Talaba soni: 26 nafar
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza
Ma'ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Logopediya fani predmeti, maqsadi va vazifalari. 2. Logopediyaning boshka fanlar bilan alokasi 3. Logopediya fanining prinsiplari. 4. Logopedning shaxsi. 5. Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari 4. Nutq nuqsonlarining tasnifi 5. Nutqning anatomik – fiziologik mexanizmlari
Uquv mashg'ulotining maksadi: Talabalarga ukuv kursi xakida tulik ma'lumot berish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
➤ Logopediya fani predmeti, maqsadi va vazifalarini sanab berish.	1. Logopediya fani predmeti, maqsadi va vazifalari xakida boshlangich ma'lumotga ega buladi.
fan sifatida logopediyaning prinsiplari tavsifiq degan savolga javob berish.	2 fan sifatida logopediyaning prinsiplapl tavsifini tushunib oladi
➤ Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari va ularning o'ziga xosligi nimadan iboratligini bilish.	3. Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari va nutk nuqsonli bolalar uchun tashkil etilgan muassasalarda bolalarni ukitishdan maksadi va vazifalarini sanab bera oladi
➤ Nutqning anatomik – fiziologik	4. Nutqning anatomik – fiziologik

mexanizmlari xakida bilimga ega bulish.	mexanizmlari xakida bilim va tasavvurga ega buladi.
Ta'lim metodlari:	Ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, insert texnikasi, guruxlarda ishlash, , test.
Ta'lim vositalari:	Ma'ruzalar matni, marker, doska, skotch, vatman, tarkatma materiallar, doska,kodoskop.
Ta'lim shakli:	Frontal, jamoaviy ish.
O'qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalar Bilan ta'minlangan va jamoaviy ishlashga muljallangan auditoriya.
Monitoring va baxolash:	Savol - javob , nazorat savollari.

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Uqituvchi	Talabalar
1 – bosqich: Kirish qismi (15 min)	1.1. Ma'ruza mashg'ulotining mavzusini bayon etadi va mavzu buyicha savol - javob o'tkazadi.	Savol - javobda ishtirok etadi.
	1.2. Tarkatma materiallarni tarkatadi. Mavzuga doir asosiy savollar, atamalar va muxim tushunchalarni izoxlab, mashg'ulotning maksadi va rejalashtirilgan o'quv ishlanmalar Bilan tanishtiradi.	Tinglashadi.
	1.3. Mavzu bo'yicha savol - javob o'tkazadi.	Savol - javobda ishtirok etishadi.
2-bosqich Asosiy kism (55 min)	2.1. Talabalarga kuyidagi savol va topshiriklarga uylab javob berish taklifini kiritadi. 9. Logopediya fanining vazifalarini ajratib ko'rsatingq 10. Nutq nuqsonlarining asosiy sabablarini ta'riflang. 11. Nutq buzilishlarining alohida turlarini ta'riflang, bir necha buzilishlarni qiyosiy tahlil qiling. 12. Markaziy nutq apparati va uning bo'limlari vazifasi nimalardan iboratq 13. Artikulyatsiya apparati organlarining kesimi rasmini chizing. Uning barcha tarkibiy qismlarini rangli qalamlar bilan bo'yang.	Savollarga javob berishadi
	➤ Nutqning anatomik – fiziologik mexanizmlari mavzusida savol - javob o'tkazadi	Savol - javobda ishtirok etishadi
	➤ Reja buyicha ma'ruzaning mazmuni prezentatsiya asosida yoritadi. ➤ Talabalar 4 ta kichik guruxlarga bulinadi va ularga mavzuga doir test savollari xamda topshiriklarni tuzish vazifasi beriladi.	Kichik guruxlarda ishlash
	➤ Gurux ishtirokchilaridan biri prezentatsiya qiladi. ➤ Prezentatsiya jarayonida talabalar Bilan	➤ Gurux sardorlari chikib o'z javoblarini sharxlashadi.

	birgalikda xar bir guruxning javoblari taxlil kilinib, kamchiliklari tuldiriladi.	➤ Ekspert guruxi a'zolari javoblar mazmunini tuldirishadi va baxolashda ishtirok etishadi.
3-boskich Yakuniy kism (10 min)	➤ Mazuni yakunlab, umumlashtirib, xulosa beradi.	➤ Xulosa yozib boriladi
	➤ Bajarilgan ishlar baxolanadi. ➤ Uyga vazifa sifatida Aloxida yordamga muxtoj bolalardagi nuksonlarni urganib kelish topshirigi beriladi.	➤ Ekspert sifatida ishtirok etishadi ➤ Topshirikni yozib oladilar.



Logopediya bu — nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta'lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini, tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fandır. (Logopediya nutq faoliyati buzilishining sabablari, mexanizmlari, alomatlari, oqimlari tarkibini o'rganadi. Shuning uchun uni maxsus pedagogika sirasiga qo'shadilar.



Logopediyaning asosiy maqsadi nutqida nuqsoni bor shaxslarni o'qitish, tarbiyalash va qayta tarbiyalashning ilmiy asoslangan sistemasini ishlab chiqish, shuningdek nutq nuqsonining oldini olishdan iboratdir. Logopediya fani optimizm va chuqur insonparvarlik bilan yo'g'rilgandır. U nutqida nuqsoni bor bolalarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib beradi.

Logopediyaning yuqorida ko'rsatilgan vazifalarida uning ham nazariy, ham amaliy yo'nalishlari belgilab berilgandır.

Amaliy tomoni


Nazariy tomoni

Amaliy tomoni — nutq buzilishini oldini olish, aniqlash va bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Logopediyatsing nazariy va amaliy vazifalari birbiriga chambarchas bog'langandir.

Nazariy tomoni — nutq buzilishlarini o'rganish hamda ularning oldini olish, aniqlash va tuzatishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqishdan iborat



Qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:



Nutq vazifasi insonning muhim ruhiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari, tushunarli tafakkur qobiliyatlari shakllanadi. Soʻzning ahamiyati oʻz-oʻzidan umumlashtiruvchi hisoblanadi va shu munosabat bilan oʻnafaqat nutq birligini, balki tafakkur birligini ham namoyon qiladi. Ular aynan oʻxshash emas va maʼlum darajada birbiriga bogʻliq boʻlmagan holda paydo boʻladi. Lekin bolaning ruhiy rivojlanishi jarayonida murakkab, sifat jihatdan yangi birlik puthim tafakkur, nutqiy fikrlash faoliyati paydo boʻladi.



Nutq buzilishi, nutqiy muomalaning cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy taʼsir koʻrsatishi, aslida boʻlmagan ruhiy buzilishlarni, hissiy irodaviy sohaning oʻziga xos xususiyatlarini keltirib chiqarishi, uning xarakteridagi salbiy fazilatlar (tortinchoqlik, qatʼiyatsizlik, odamovilik, salbiylik, nomukammallik tuygʻusi)ning rivojlanishi uchun yoʻl ochib berishi mumkin.



Nutq murakkab funktsional jarayondir. Uning asosida muloqot jarayonidagi til belgisi tartiblaridan qoʻllanish yotadi. Tilning murakkab sistemasi uzoq muddatli ijtimoiy tarixiy rivojlanish mahsuli boʻlib, u bola tomonidan nisbatan qisqa muddatlarda oʻzlashtirib olinadi. Nutqiy sistema bosh miya aʼzolarining faoliyatiga asoslanadi. Ulardan har biri nutq faoliyatining oʻziga xos vazifasini bajaradi.

A. R. Luriya miya faoliyatini uchta funksional blokka ajratadi.

Birinchi blok bosh miya po'stlog'i osti (yuqori stvol va limbik oblast) haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi. U bosh miya qatlami tonusining normalligi va uning tetiklik holatini ta'minlaydi.

Ikkinchi blok — orqa miya qatlami katta yarim sharlari bo'laklarini o'z ichiga oladi, tashqi dunyodan olingan sezgi axborotlarini qabul qiladi, qayta ishlaydi va saqlaydi. U bilish (gnostik) jarayonini amalga oshiradigan asosiy miya apparati hisoblanadi.

Uchinchi blok katta yarim sharlar qobiqipi oldingi bo'limlari (motor, motor oldi va old frontal soqa) doirani o'z ichiga oladi. Bu blok inson faoliyatini rejalashtirish, moslashtirish va nazorat qilishni ta'minlaydi.

logopediyaning prinsip va metodlari



Sistemalilik printsipti til haqida murakkab funksional sistema to'g'risidagi tushunchaga tayanadi. Uning tuzilish komponentlari o'zaro chambarchas aloqada bo'ladi. Shu munosabat bilan nutqni, uning rivojlanishi jarayonlarini va buzilishini tuzatishni o'rganish nutq qurilishi sistemasining barcha komponentlariga, barcha tomonlariga ta'sir etishini nazarda tutadi.



Rivojlanish printsipti, shuningdek bolaning yaqin rivojlanishi doirasidan o'rin olgan ma'lum vazifalar, qiyinchiliklar bosqichlarni logopedik ish jarayoniga ajratishni ham ko'zda tutadi.



Nutq buzilishlarini o'rganish va tuzatishda didaktik printsiplar: ko'rgazmalilik tushunarlilik, onglilik, yakka tartibda yondoshish va boshqalar muhim o'rin tutadi.

Logopediya fani metodlarini shartli ravishda bir necha guruhlariga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh — tashkiliy metodlar: qiyosiy longityudinal (dinamikada o'rganish), kompleksli.

Ikkinchi guruhni empirik metodlar tashkil etadi: observatsion (kuzatish), eksperimental, psixodiagnostik testlar, anketalar, suhbatlar, intervyu), nutqiy faoliyatni ham tahlil qilishning praksimetrik usullari, biografik metod.

Uchinchi guruhga olingan ma'lumotlarni miqdor (matematikstatistik) va sifat analizi kiradi. Bunda olingan ma'lumotlar EHM ni qo'llagan holda mashinada ishlab chiqiladi.


To'rtinchi guruh — interpretatsion metodlar, uslublar, o'rganilayotgan hodisalar o'rtasidagi aloqalarni nazariy tadqiq qilish usullari (qismlar va butunlik o'rtasidagi, alohida jihatlar va umuman hodisa o'rtasidagi, funktsiyalar va shaxs o'rtasidagi hamda boshqa aloqalar).

Logopedning shaxsi



Logoped nutqi atrofdagilarga — nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham namuna bo'lishi lozim. Logoped yagona nutqiy tartibni ta'minlaydi, maxsus bolalar muassasalaridagi o'rta va kichik xodimlarga nutq madaniyatini o'rgatadi, qator hollarda, masalan, maxsus bolalar uylari sharoitlarida barcha o'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqaradi.

Nutq buzilishlari quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:



Nutqning buzilishi alomati bu nutqiy faoliyatning qandaydir buzilishi belgisi (namoyon bo`lishi) dir.



Nutqiy buzilish alomati — bu nutqiy faoliyat buzilishining belgilari majmui (ko`rinishlari) dir.



Nutq buzilishi mexanizmlari deganda nutqiy faoliyat buzilishining paydo bo`lishi va rivojlanishini shart qilib qo`yuvchi jarayon va operatsiyalarning bajarilishidan chetlashish xarakteri tushuniladi.



Nutq buzilishining patogenezi — bu nutqiy faoliyatda buzilishlarning paydo bo`lishi va rivojlanishiga sabab bo`luvchi patologik mexanizmdir.



Logopedik ta'sir nutqiy faoliyat buzilishini tuzatish, nutqi buzilgan bolaii tarbiyalash va rivojlantirishga yo`naltirilgan pedagogik jarayonni o`z ichiga oladi.



Nutq buzilishini tuzatish — nutq buzilishi alomatini to`g`rilash yoki engillashtirishdir («nutq buzilishlarining oldini olish», «tuzatish» — bu borada qo`llaniladigan atamalardir).



Kompensatsiya (muzlash) organizmning qandaydir harakatlarining yo`qolishi yoki buzilishi hollaridagi psixologik funktsiyalarni qayta qurishning ko`p qirrali, murakkab jarayonini o`zida namoyon qiladi.



O`qitish — ikki tomonlama boshqariladigan jarayondir. U bolalarning bilim, malaka va ko`nikmalarni o`zlashtirish borasidagi faol bilish faoliyatini, bu faoliyat ustidan pedagogik rag`barlikni amalga oshirishni o`z ichiga oladi.



Tarbiyalash jamiyat ehtiyojlariga muvofiq ravishda shaxsning yoki uning alohida sifatlarining shakllanish jarayonini maqsadga yo`naltirilgan holda uzluksiz, tashkiliy tarzda boshqarish demakdir.



Qayta tarbiyalash jarayonida nutqiy faoliyati buzilgan kishilarning o`ziga xos muhim xususiyatlarini tuzatish ishlari amalga oshiriladi.




Logopedik ta'sir nutq buzilishlarini bartaraf etishga (masalan, disleksiyada), to`g`rilashga (masalan, tovushni qo`yish) ham, nutqsiz buzilishlarning salbiy alomatlarini (ruhiy xususiyatlarini) yo`qotishga ham qaratilgan bo`lishi mumkin.

NUTQNING BUZILISH SABABLARI



Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek atrofmuhitning tashqi sharoitlari farq qilinadi. Nutqiy nuqsonning turli sabablarini ko`rib chiqishda evolyutsiondinamik yondoshiladi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini tahlil qilishdan, anomal rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini va har bir yosh davrida nutqning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olishdan iboratdir (I. M. Sechenov, L. V. Vngotskiy, V. I. Lubovskiy).

Bolalardagi nutqiy nuqsonlarning asosiy sabablari:



Hamma nutq buzilishlari kelib chiqishiga ko`ra ikki guruhga bo`linadi:

- **Organik xarakterdagi nutq buzilishlari.**
- **Funksional xarakterdagi nutq buzilishlari.**

Organik xarakterdagi nutq buzilishlari.

Markaziy buzilishlar: markaziy nerv sistemasini u yoki bu qismlarining buzilishi, zararlanishi natijasida kelib chiqadi.

Markaziy xarakterdagi organik nutq buzilishlariga: alaliya, afaziya, dizartriya nutq kamchiliklari kiradi.

Pereferik buzilishlar: artikulyatsion apparatning noto`g`ri tuzilishi yoki buzilishi va pereferik nerv artikulyatsion organlar inervatsiyasining buzilishidan kelib chiqadi.

Pereferik xarakterdagi organik nutq buzilishlariga: rinolaliya, prognatiya, progeniya kiradi.


Funksional xarakterdagi nutq buzilishlari.

Funksional buzilishlar — bunda nutq jarayonida ishtirok etadigan a'zolar tuzilishida hechqanday o`zgarishlar bo`lmaydi. Funksional xarakterdagi nutq buzilishlariga — dislaliya, duduqlanish kabi nutq nuqsonlari kiradi.

Turli nutq buzilishlarining rivojlanishini oldindan aniqlash katta ahamiyatga egadir.

Agarda nutqiy nuqson bolaning maktabga kelgan vaqtida ilk bor aniqlansa, u holda uni tuzatish qiyinchiliklari kuzatilib, o`zlashtirishga salbiy ta'sir ko`rsatadi.

NUTQ BUZILISHLARINI TASNIFLASH



Bayon qilishning strukturali-semantik (ichki) turlanishidagi buzilishi ikki tur: alaliya va afaziya bilan ko'rsatiladi.

Alaliya — bosh miya qobiqidagi nutq zonalarining bolaning ona qornidagi yoki ilk rivojlanish davrida organik shikastlanishi natijasida nutqning yo'q bo'lishi yoki rivojlanmay qolishi.
Ma'nodoshlari: disfaziya, erta yoshda paydo bo'ladigan bolalar afaziyasi, rivojlanish afaziyasi, gunglik (eskirgan).

Afaziya — bosh miyaning muayyan joyi shikastlanishi bilan bog'liq holda nutqning to'liq yoki qisman yo'qolishi.
Ma'nodoshlari: nutqning buzilishi, yo'qolishi.
Bola nutqining bosh miya jarohatlanishi, neyroinfektsiya yoki miya shishi natijasida yo'qqolishi nutqning shakllanib bo'lganidan so'ng yuz beradi. Agar bunday buzilish uch yoshdan so'ng sodir bo'lsa, unda bolalar afaziyasi deb nomlanadi.

Nutqning eng murakkab nuqsonlaridan biri, bunda nutqiy bayonning paydo bo'lishi va uni qabul qilishning barcha bosqichlaridagi tanlash va rejalashtirish operatsiyalari buzilgan bo'ladi. Uning natijasida bolaning nutqiy faoliyati rivojlanmay qoladi.



Logopediyada nutq buzilishlarining 11 ta shakli ajratiladi, ulardan 9 tasi og'zaki nutq natijasi va ishlab chiqarishning turli jarayonlaridagi buzilishlarni tashkil etadi. Qolgan 2 ta shakl esa yozma nutqning buzilish jarayoni bilan bog'liq holda ajratiladigan buzilishlarni o'z ichiga oladi. Og'zaki nutqning buzilishlari orasida disfoniya (afoniya), taxilaliya, bradilaliya, duduqlanish, dislaliya, rinolaliya, dizartriya (anartriya), alaliya, afaziya ajratiladi; yozma nutqning buzilishlari orasida disleksiya (aleksiya) va disgrafiya (agrafiya) ajratiladi.

Yozma nutqning buzilishi. Uning qaysi turi buzilganiga qarab ikki guruhga ajratiladi. Mahsuldor tur buzilganida yozuvning zaiflashuvi, retseptli yozma faoliyat buzilganida — o`qishning zaiflashuvi qayd qilinadi.

Disleksiya — o`qish jarayonining qisman o`ziga xos buzilishi. harflarni idrok etish va tanishdagi qiyinchiliklarda; harflarni bo`g`inlarga qo`shish va bo`g`inlardan so`z tuzish borasidagi tutilishlarda (bu so`z shakllarini noto`g`ri talqin qilishga olib keladi); agrammatizm va o`qiganlarini buzib tushunishda namoyon bo`ladi.

Disgrafiya — yozish jarayonining qisman o`ziga xos ravishda buzilishi. Harfning optikfazoviy obrazining turg`un emasligida, harflarning aralashib ketishi yoki tushib qolishida, so`zning so`z boqin tarkibini bayon qilish, va gap qurilishida namoyon bo`ladi. Uqitish davomida yozish jarayoni shakllanmagan hollarida agrafiya haqida fikr yuritiladi.

Bolalardagi yozish va o`qishning buzilishi bu jarayonlarni to`liq holda amalga oshirish uchun zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalarni o`zlashtirishdagi qiyinchiliklar orqali yuzaga keladi.



Psixologik-pedagogik tasnif tibbiy tasniflarni pedagogik jarayonda qo`llanish nuqtai nazaridan tanqidiy tahlil qilish natijasida vujudga keldi (bu uslub logopedik ta'sir etish deyiladi). Bunday tahlil logopediyani nutqiy rivojlanishi buzilgan bolalarni o`qitish va tarbiyalashga jalb etish bilan bog`liq holda juda muhim bo`ldi.



Keltirilgan tasnifda nutq buzilishlari ikki guruhga bo`linadi.


Birinchi guruh — muomala vositalarining (nutqning fonetikfonematik va umumiy rivojlanmay qolishi) buzilishi.

1. Nutqning fonetikfonematik rivojlanmay qolishi — bolalarda ona tilini talaffuz qilish sistemasi shakllanish jarayonlarining fonemalarini idrok etish va talaffuzdagi nuqsonlar oqibatida turlicha nutq zaiflashuvlari bilan bog`liq ravishda buzilishidir.



2. Nutqning to`liq rivojlanmay qolishi — turli xil murakkab nutqiy kamchilikdir, bunda nutq sistemasining tovush chiqarish va ma'noli tomonlariga taalluqli barcha komponentlarining shakllanish jarayoni buzilgan bo`ladi. Ikkinchi guruh — muomala vositalarini qullanishdagi buzilish (unga duduqlanish ham kiradi)

NUTQNING ANATOMIL-FIZIOLOGIK MEXANIZMLARI




O`tkazuvchi yo`llar. Bosh miya qobiqi perefirik nutq a'zolari bilan o`zaro bog`liqdir.

Bunda nerv yo`llarining ikki: markazdan qochuvchi va markazga intiluvchi turlari ishtirok etadi.

Markazdan qochuvchi (harakatlanuvchi) nerv yo`llari bosh miya qobig`ining periferik nutq apparati faoliyatining boshqaruvchi muskullari bilan bog`laydi. Markazdan qochuvchi yo`l bosh miya qobig`ining Broka markazidan boshlanadi.

Pereferiyadan markazga, ya'ni nutq a'zolari qismidan bosh miya qobig`iga, markazga intiluvchi yo`llar o`tadi.



1- расм. Нутқ аппаратининг тузилиши:

1 — бош мия; 2 — бурун бұшлиғи; 3 — қаттиқ танглай; 4 — оғиз бұшлиғи; 5 — лаблар; 6 — тишлар; 7 — тил учи; 8 — тил орқаси; 9 — тил илдиэи; 10 — кичик тилча; 11 — халқум; 12 — хиқилдоқ; 13 — трахея; 14 — ұнг бронх; 15 — ұнг ұпка; 16 — диафрагма; 17 — қизилұнғач; 18 — умуртқа; 19 — орқа мия; 20 — юмшоқ танглай.



Markaziy nutq apparatidan nutq apparatiga boruvchi bu yo`l nutq mexanizmining faqat bir qismini tashkil qiladi. Uning boshqa qismi orqaga, ya'ni pereferiyadan markazga qaytuvchi aloqadan iborat.

Endi pereferik nutq apparatining tuzilishini ko`rib chiqamiz.


Pereferik nutq apparati uch bo`limdan iborat:

1) nafas bo`limi; 2) ovoz bo`limi; 3) artikulyatsion bo`lim.


Nafas bo`limiga ko`krak qafasi, bronxlar va traxeya kiradi.



Ovoz bo`limi hiqildoq va u bilan birga joylashgan ovoz paychalaridan tashkil topgan. hiqildoq nafas yo`lining burun bo`shlig`idan keyingi qismi. Hiqildoq havoning traxeyaga o`tishini ta'minlaydi va unga qattiq, suyuq moddalar tushishiga to`sqinlik qiladi. hiqildoqda ovoz paychalari joylashgan bo`lib, ular nafas olganda, qattiq yoki sekin gapirganda muayyan holatni egallaydi.



2 rasm. Ovoz boylamlarining ko`rinishi: A — nafas olishda; B — fonaniyada (ovoz hosil bo`lishida); v — shivirlash vaqtida.



3 rasm. Artikulyatsiya a`zolarining yon tomondan ko`rinishi (profil):

1 — lablar; 2 — tishlar; 3 — alveolalar; 4 — qattiq tanglay; 5 — yumshoq tanglay; 6 — ovoz boylamlari; 7 — til ildizi; 8 — til orqa qismi; 9 — til oldi

Artikulyatsion bo`lim. Artikulyatsion bo`limning asosiy a`zolari: til, lablar, jag` (yuqori va pastki), qattiq va yumshoq tanglay, alviolalardir. Ulardan til, lab, yumshoq tanglay va pastki jag` aktiv, qolganlari passiv organlar bo`lib hisoblanadi (3 rasm).



Artikulyatsion bo`limning asosiy a'zosi tildir. Til — salmoqli muskul a'zosidir. Iiqilgan jag`da (jag`lar birbiriga tegib turganda) u deyarli butun og`iz bo`shlig`ini to`ldiradi. Tilning oldingi qismi harakatchan, orqa qismi harakatsiz bo`lib, til ildizi nomini olgan. Tilning harakatchan qismining uchi, old, yon va orqa tomonlari farq qilinadi, Tilning murakkab muskullar sistemasi, ularning katta kenglikda shaklini o`zgartirish imkoniyatini yaratadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

Ekspert varagi № 1

1. Logopediyani fan sifatida ta'riflab bering. Logopediyaning predmeti, ob'ekti va ahamiyatini sharhlang.
2. Logopediyaning maqsad va vazifalari iimalardan iborat?

Ekspert varagi № 2

1. Logopediya qaysi fanlar bilan bog`langan?
2. Logopediyaning metodologik asoslari, uning printsiplari va metodlarini ochib bering.

Ekspert varagi № 3

1. Nutq nuqsonlarining asosiy sabablarini ta'riflang.
2. Nutq buzilishlarining alohida turlarini ta'riflang, bir necha buzilishlarni qiyosiy tahlil qiling.

Ekspert varagi № 4

- 5.
6. Markaziy nutq apparati va uning bo`limlari vazifasi nimalardan iborat?
7. Artikulyatsiya apparati organlarining kesimi rasmini chizing (3rasmga qarang). Uning barcha tarkibiy qismlarini rangli qalamlar bilan bo`yang.

Test topshiriqlari

1. Logopediya fanining asosiy maksadi nimadan iborat?

- A. Nutk buzilishining oldini olish metodlarini takomillashtirish
- B. Logopedik ish jarayonida sezuvchanlik kobilyatini rivojlantirish
- S. Nutk buzilishlarining pedagogik diagnotsikasi metodlarini ishlab chikish
- D. Nutk buzilishining keng tarkalgan alomatlarini va farajlarini aniklash;
- Ye. Nutkida nuksoni bor bolalarni ukitish, tarbiyalash, kayta tarbiyalash va nutk nuksonining oldini olish

2. Logopediya kaysi fanlar bilan boglangan?

- A. Tilshunoslik, psixolingvitsika, nervapatologiya, psixopatologiya, pediatriya, oligofreniya klinikasi. Umumiy maxsus psixologiya va psixodiagnotsika
- B. Anatomiya, psixologiya, matematika, tilshunoslik, surdopedagogik, biologiya, tarix, ximiya
- S. salaringologiya, nevropatologiya, psixopotologiya, oligofreno klinikasi, pediatriya, tilshunoslik va psixodiagnotsika
- D. Maxsus psixologiya, fiziologiya, patopsixologiya, nevropotologiya, neyrofiziologiya, tibbiyot, zoologiya;

Ye. Korreksion pedagogika, oligofreniya klinikasi

3. Nutk buzilishlari kelib chikishiga kura necha guruxga bulinadiq

A. Markaziy buzilishlar; alaliya, afaziya, dizartriya

B. Organik funksional

S. Tereferik buzilishlar: artikulyatsion apparatning notugri tuzilishi yoki buzilishi

D. Rinolaliya, prognatiya, progeniya

Ye. Dislaliya va duduklanish

4. Tereferik nutk apparati necha bulimdan iboratq

A. Nutk, xarakat, nutk kruuv, nutk eshituv anamuatorlari

B. Uch tarmokli nerv, yuz, til, xalkum, sayyor, kushimcha va til otsi nervlar

S. Nafas, ovoz, artikulyatsiya

D. Rezanator, xavo yetkazish, ovoz xosil kilish;

Ye. Kuchga, balandlikka, tembrga

5. Tugri tovushlar talaffuzini yo`lga kuyishda nechta asosiy usuldan foydalaniladiq

A. Belkurakcha, kosacha, ninacha

B. Taklid, naycha, kuzikorin

S. Mazali murabbo, buyokcha, galtak

D. Tepacha, argimchok, mexanik

Ye. Taklid, mexanik, aralash

6. Pseudobulbar dizarteriya necha darajaga ajratiladiq

A. Pats, baland, monoton, mankallangan

B. Umumiy va nutkiy xirillagan

S. Lab va til xarakati chegaralangan

D. Kobik, kobik otsi, miyachali

Ye. Yengil, urta, ogir

7. Funksional afoniya kandy kurinishlarga ajratiladiq

A. Paretik, spatsik, paretikslatsik

B. Mutizm, afaniya, disfoniya, fonatseniya

S. Organik, Funkyional

D. Markaziy va pereferik

Ye. Kurkish, affektiv, ruxiy zurikish

8. Afaziya necha shaklga ajratiladiq

A. Dislaliya, disleksiya, disgrafiya, dizartriya

B. Motor, sensor, amnetsik, total

S. Bosh miya jaroxatlanishi, yalliglanishi va miyada kon-tomir kasalliklari

D. Semantik, agromatik, menetsik, optik, taktil

Ye. Sigmatizm, rotatsizm, lambatsizm, gamatsizm, xatizm

Glossariy

Logopediya bu — nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta'lim va **tarbiya** vositasida nutq buzilishlarini o'rganish, tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fandır. (Logopediya nutq faoliyati buzilishining sabablari, mexanizmlari, alomatlari, oqimlari tarkibini o'rganadi. Shuning uchun uni maxsus pedagogika sirasiga qo'shadilar.

Logopatiya – karlik Bilan boglik bulmagan xolda nutkning buzilishi.

Logopedik ta'sir nutq buzilishlarini bartaraf etishga (masalan, disleksiyada), to'g'rilashga (masalan, tovushni qo'yish) ham, nutqsiz buzilishlarning salbiy alomatlarini (ruhiy xususiyatlarini) yo'qotishga ham qaratilgan bo'lishi mumkin.

Nutqning buzilishi alomati bu nutqiy faoliyatning qandaydir buzilishi **belgisi** (namoyon bo'lishi) **dir**.

Nutqiy buzilish alomati — bu nutqiy faoliyat buzilishining belgilari **majmui** (ko'rinishlari) **dir**.

Nutq buzilishi mexanizmlari deganda nutqiy faoliyat buzilishining paydo bo'lishi va rivojlanishini shart qilib qo'yuvchi jarayon va operatsiyalarning bajarilishidan chetlashish xarakteri tushuniladi.

Nutq buzilishining patogenezi — bu nutqiy faoliyatda buzilishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga sabab bo'luvchi patologik mexanizmdir.

Kompensatsiya (muzlash) organizmning qandaydir harakatlarining yo'qolishi yoki buzilishi hollaridagi psixologik funksiyalarni qayta qurishning ko'p qirrali, murakkab jarayonini o'zida namoyon qiladi.

Disfoniya (afoniya) — tovush apparatining patologik o'zgarishlari oqibatida fanatsiyaning yo'q bo'lishi yoki zaiflashuvi.

Bradilaliya — nutqning patologik sekinlashgan sur'ati. **Ma'nodosh i:** bradifraziya.

Taxilaliya — nutqning patologik tezlashgan sur'ati. **Ma'nodosh i:** taxifraziya.

Dislaliya — tovush talaffuz qilishning normal eshitish va nutq apparatining saqlangan innervatsiyasi paytida buzilishi

Rinolaliya — tovush tembri va talaffuzining nutq apparatidagi anatomikfiziologik nuqsonlar bilan bog'liq xoldagi buzilishdir

4 Darslik va o'quv qo'llanmalar.

1. Ayupova M. Logopediya. "O'zbekiston faylasoflari miliy jamiyat nashriyoti", T.:2007 y
2. Po'latova P. Maxsus pedagogika (oligofrenopedagogika). T.: "Fofur Fulom", 2006 yil.
3. Raxmonova V. Maxsus pedagogika T.: "Fofur Fulom", 2004 yil.
4. Surdopedagogika pod. Red Nikitinoy M.I. – M.: "Prosvesheniye" 2002 yil.
5. Litvak A.G. Tiflopedagogika. M.: "Prosvesheniye" 1982 yil.
6. Shoumarov F.B. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. T.: "O'qituvchi", 1995 y.
7. Shoumarov F.B., Mamedov K.K. Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalar T.: "O'qituvchi", 1995 yil
8. Mo'minova L, Ayupova M. Logopediya. T.: "O'qituvchi", 1993 yil.
9. Seleverstova V.I. Ponyatiyno – terminologicheskiy Slovar logopediya. M.: "Gumanitarnuy izdatelskiy sentr VLADAS" 1997 yil
10. Mo'minova L. Tutilib gapiruvchi o'smirlar uchun qo'llanma. T.: "O'qituvchi", 1980 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Belova N.I. Spetsialnaya doshkolnaya surdopedagogika. M.: "Prosvesheniye" 1985 yil.
2. Raxmonova V.S. Korreksion pedagogika va logopediya asoslari. T.: "O'qituvchi", 1991 y.
3. Shomaxmurova R., Mo'minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. T.: "O'qituvchi", 1995 y.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: "O'qituvchi", 1992 y.
5. Logopediya. (pod. Red. L.S.Vokovoy) M.: "Prosvesheniye" 1989 yil.
6. Mo'minova L. Bolalarni logopedik tekshirish va o'qitish. T.: "O'qituvchi", 1992 y.
7. Mamedov K.K. va boshqalar .Oligofrenopedagogika asoslari .T.: "O'qituvchi", 1994 y.



9- Mavzu: TOVUSHLAR TALAFFUZIDAGI KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO`LLARI



UMUMIY O`QUV MAQSADLARI

Ta'limiy: Talabalarda nutk kamchiliklari va ularni bartaraf etish yullari xakida nazariy bilimlarni berish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Tarbiyaviy: Talabalarining jamoada, kichik guruhlarda va individual ishlash qobiliyatlarini shakllantirish, kasbga bo'lgan qiziqishlarini ortirish

Rivojlantiruvchi: Talabalarda erkin fikrlash va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish.



Asosiy ma'lumotlar



Nutq tovushlari talaffuz etiladigan so`zning kichik, ayrim bir qismidir. Tovushni fonemadan farq qilmoq kerak. Fonema so`z ma'nolarini ifodalash va farqlash uchun xizmat qiladigan nutq tovushshlar. Fonemalar soni yagona umumxalq tili va uning shevalariga ko'ra har xil bo'lishi ham mumkin.

c. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Vaqt – 6 soat	Talaba soni: 26 nafar
Mashg`ulot shakli	Ma'ruza
Ma'ruza rejasi	<p>Dislaliya va uning turlari Sigmatizm va uni bartaraf etish. Turli sigmatizmlarni bartaraf qilish Rotatsizm, lamdosizm va uni tuzatish usullari Til orqa chuqur til orqa tovushlari (K G X Q G` H) kamchiliklarni tuzatish Bolalarda tovushlar talaffuzi holatini tekshirish Anamnezni o'rganish usuli Artikulyatsiya gimnastika mashqlari Talaffuz qilish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish</p>
Uquv mashgulotining maksadi: Talabalarga o'qquv kursi xakida tulik ma'lumot berish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
➤ Dislaliya va uning turlari tavsifiq degan savolga javob berish.	➤ Dislaliya va uning turlari tavsifini tushunib oladi
➤ Sigmatizm va uning turlari va turli xil sigmatizmlarni bartaraf qilish va ularning o'ziga xosligi nimadan iboratligini bilish.	<p>➤ Sigmatizm va uning turlari. ➤ Turli xil sigmatizmning kelib chiqish sabablari haqidagi tushunchaga ega bo'ladilar. ➤ Nutk nuqsonli bolalar uchun tashkil etilgan</p>

	muassasalarda bolalarni o'qitishning maksadi va vazifalarini sanab bera oladi
➤ Rotatsizm, lamdotsizm va uni tuzatish usullari xakida bilimga ega bulish.	➤ Rotatsizm, lamdotsizm va uni tuzatish usullari xakida bilim va tasavvurga ega buladi.
Ta'lim metodlari:	Ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, guruhlarda ishlash, test.
Ta'lim vositalari:	Ma'ruzalar matni, marker, vatman, doska, skotch, tarkatma materiallar,
Ta'lim shakli:	Frontal, jamoaviy ish.
Ukitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va jamoaviy ishlashga muljallangan auditoriya.
Monitoring va baxolash:	Nazorat savollari.

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi


Faoliyat bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1 – bosqich: Kirish kismi (15 min)	1.1. Ma'ruza mashg'ulotining mavzusini bayon etadi va mavzu bo'yicha savol - javob o'tkazadi.	Savol - javobda ishtirok etadi.
	1.2. Tarkatma materiallarni tarkatadi. Mavzuga doir asosiy savollar, atamalar va muxim tushunchalarni izohlab, mashg'ulotning maksadi va rejalashtirilgan ukuv ishlanmalar bilan tanishtiradi.	Tinglashadi.
	1.3. Mavzu buyicha savol - javob o'tkazadi.	Savol - javobda ishtirok etishadi.
2-bosqich Asosiy kism (55 min)	2.1. Talabalarga kuyidagi savol va topshiriklarga uylab javob berish taklifini kiritadi. Unli fonemalar qaysi belgilariga ko'ra tavsiflanadiq 1Nima uchun bola tug'ilgandan to'rt yoshgacha bo'lgan davrda Hamma vaqt talaffuzida ma'lum bir kamchiliklar ajralib turadiq 2.Dislaliyaning qanday turlarini bilasizq 3Dislaliya nuqsonini ta'riflab bering. 4.Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar nimadan kelib chiqadiq 5.Dislaliyaning qaysi turlari, ko'rinishlari mavjudq 6.Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar kaysi yo'llar bilan bartaraf etiladi? 7Rotatizm va pararotatsizmni ta'riflab bering. 8Til orqa tovushlarining noto'gri talaffuzi va uni bartaraf etish usullari kandayq 9.Bolalar nutqini tekshirish yo'llarini ayting	Savollarga javob berishadi

	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish usullari mavzusida savol - javob o'tkazadi ➤ Reja buyicha ma'ruzaning mazmuni prezentatsiya asosida yoritadi. ➤ Talabalar 4 ta kichik guruxlarga bulinadi va ularga mavzuga doir test savollari xamda topshiriklarni tuzish vazifasi beriladi. 	<p>Savol - javobda ishtirok etishadi</p> <p>Kichik guruxlarda ishlash</p>
	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Gurux ishtirokchilaridan biri prezentatsiya kiladi. ➤ Prezentatsiya jarayonida talabalar Bilan birgalikda xar bir guruxning javoblari taxlil kilinib, kamchiliklari tuldiriladi. 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Gurux sardorlari chikib uz javoblarini sharxlashadi. ➤ Ekspert guruxi a'zolari javoblar mazmunini tuldirishadi va baxolashda ishtirok etishadi.
3-boskich Yakuniy kism (10 min)	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Mazuni yakunlab, umumlashtirib, xulosa beradi. ➤ Bajarilgan ishlar baxolanadi. ➤ Uyga vazifa sifatida Aloxida yordamga muxtoj bolalardagi nuksonlarni urganib kelish topshirigi beriladi. 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Xulosa yozib boriladi ➤ Ekspert sifadida ishtirok etishadi ➤ Topshirikni yozib oladilar.



O'zbek tilida 6 ta unli tovush bo'lishiga qaramay, shu tilning ba'zi shevalarida unli fonemalar soni 6—7 dan tortib, 18 tagacha bo'ladi. Shuningdek, har bir tilning fonemalar sistemasi sifat va miqdor jihatdan bir xil emas: bir tilda fonemalar soni ko'proq, boshqasida esa ozroq bo'lishi mumkin. Masalan, rus tilida 42 ta, o'zbek tilida 29 ta fonema bor.


Unli tovushlar til harakatiga nisbatan olinganda uch toifaga bo'linadi:



Dislaliya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib — buzilish, —nutq degan ma'noni anglatadi. Dislaliya nutq buzilishlari orasida eng ko'p tarqalgan kamchilikdir.

Etiologik belgilarga ko'ra displaliya ikki turga bo'linadi: mexanik (organik) va

funksional dislaliya.



Jag` tuzilishidagi kamchiliklar prikus nonormalliklariga olib keladi. Nonormal prikuslar bir necha xil ko`rinishda bo`lishi mumkin.

Prognatiya — yuqori jag` oldinga tomon chiqqan bo`ladi. Buning natijasida pastki oldingi tishlar yuqoridagi tishlar bilan birlashmaydi.



4 rasm. Prognatiya. 5 rasm. Progeniya. 6 rasm. Oldingi ochiq prikus.
Progeniya — pastki jag` oldinga chiqqan bo`ladi



Ochiq prikus — yuqori va pastki jag`lar birlashganda ular orasida oraliq masofa qoladi. Ayrim hollarda bu oraliq faqat oldingi tishlar orasida bo`ladi (oldingi ochiq prikus) (6 rasm).

Yoni ochiq prikus o`ng tomonli, chap tomonli va ikki tomonli bo`lishi mumkin. Tishlarning (tish qatorining) noto`g`ri tuzilishi ham dislaliyaga sabab bo`lishi mumkin.



Funksional dislaliyaning keng tarqalgan sabablaridan biri oilada bola nutqini noto`g`ri shakllantirishdir. Ayrim oilalarda kattalar bola nutqiga tahlid qiladilar. Bolani suyib, u bilan «bola tilida» so`zlashadilar. Buning natijasida bolada tovushlarning to`g`ri talaffuzi kech rivojlanadi.



Dislaliyaning turlari

Tovushlarni «noto`g`ri talaffuz etish ona tilida hamma tovushlarda uchratish mumkin.

Tovushlar talaffuzining buzilishi asosan artikulyatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo`lgan: sonor (r, l), sirg`aluvchi (s, z, s) va shovqinli (sh, j, ch), til orqa (k, g) tovushlarida uchraydi.

Bolalarga tovushlar talaffuzining buzilishi tovushlarni nutqda yoqligi, ularni buzib talaffuz etish va birbiri bilan almashtirish hollari bilan namoyon bo`ladi.

dislaliya quyidagi turlarga ajratiladi

1,2,3

Sigmatizm (grekcha «sigma» «s» harfining nomini bildiradi). Bunda sirg`aluvchi (s, z, s) va shovqinli (sh, j, ch) tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi.

Rotatsizm (grekcha ro harfi nomidan olingan b`ylib, «r» tovushni bildiradi) r tovushining talaffuzidagi kamchiliklardir.

Lambdatsizm — (grekcha lambda harfini nomidan olingan bo`lib, l tovushini bildiradi). l tovushining talaffuzidagi kamchilikdan iborat.



Til orqa tovushlaridagi kamchiliklar:
kappatsizm — k tovushining nutqda yoqligi, parakatatsizm «k» tovushini almashtirilishi. Masalan, koptok — «topto», kitob — «titob»;
gammatsizm — g tovushining nutqda yoqligi, paragammatsizm — g tovushining almashtirilishi. Masalan, gul— «dul», gilam — «dilam»;
xitizm — x tovushining nutqda yoqligi, paraxitizm x tovushining almashtirilishi. Masalan, xat — «tat», xo`roz — «to`roz»;
yotatsizm — y tovushining nutqda yo`qligi, parayotatsizm y tovushining almashtirilishi (grekcha kappa, gamma, xi, yota harflarini nomidan olingan bo`lib, k, g, x, y tovushlarini bildiradi).
Jaranglatish nuqsonlari—jarangli undosh tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar. Bu kamchiliklar jarangli undosh tovushlarni jarangsiz undosh tovushlarga almashtirilishidir: b—p, d—t, v—f, z—s, j—ch, g—k va boshqalar.



Sigmatizm va uni bartaraf etish
S, 3 tovushlari. Bu tovushlar sirg`aluvchi tovushlar gruppasiga kiradi. Ularning talaffuzidagi kamchiliklarni to`g`rilash, yuqorida qayd etilganidek, bolada bu tovushlarni eshitib, ularni birbiridan farqlash malakalarini rivojlantirishdan boshlanadi. So`ngra artikulyatsion mashqlar o`tkaziladi. Keyin esa shu tovushlarning to`g`ri artikulyatsiyasi o`rgatiladi.

8. talaffuz vaqtida lablar iljaygansimon ochiq;
9. pastki va ustki tishlar esa birbiriga tegartegmas darajaga yaqin holatda bo`ladi;
10. tilning uchi yoyilib, yuqori milkka tegartegmas holatda bo`ladi, ya`ni tilning sathi bilan qattiq tanglay orasidagi masofa torayib boradi, yumshoq tanglay esa bir oz ko`tariladi.



7 rasm. S, 3 tovushlari

artikulyatsiyasi profili. kulya iyasi profili.

Havo oqimi til va yuqori milkdan sirg`alib chiqadi.

3 tovushining talaffuzi s tovushi artikulyatsion holatiga ' o`xshashdir, faqat unga ovoz qo`shiladi (7 rasm).




8 rasm. S tovushi

S tovushi

S tovushi (8 rasm) qorishiq tovushdir. S tovushi murakkab artikulyatsiya bilan hosil bo`ladi. Tilning oldingi qismi milkka taqaladi, lekin portlash yuz bermay, og`iz bo`shlig`iga kelgan havo asosan sirg`alib chiqib ketadi. To`la bo`lmagan ana shu portlash natijasida qorishiq T q S q S undoshi hosil bo`ladi.

Sh va J tovushlari

Sh — shovqinli, sirg`aluvchi til oldi tovush (9rasm). Bu tovushni talaffuz etayotganda lablar bir oz cho`chchayadi, yuqori va pastki tishlar birbiriga juda yaqinlashadi, til uchi muallaq holatda bo`lib, salgina qisqaradi va yozilib tepa tishlarga tomon ko`tariladi. Pastki jag` esa jiplashadi. Til uchi va tishlar oralig`idan sirg`alib chiqqan havo to`lqini **Sh** tovushini vujudga keltiradi.



9 rasm. Sh. J tovushlari artnkulyatsiyasi profili.

10 rasm. Ch tovushi arti kulyatsiyasi profili.

J — tovushini talaffuz etayotganda pastki tishlar qatori bir oz pastga tushiriladi, til uchi tanglay tomon ko`tariladi, ovoz paychalari esa jiplashgan holatda bo`lib yengil titraydi.

Ch tovushi

Ch tovushi talaffuz etilayotganda lablar bir oz cho`chchayadi, tilning oldingi qismi milkka tegadi, og`iz bo`shlig`iga kelgan havo sirg`alib chiqib ketadi. To`la bo`lmagan ana shu portlash va havoning sirg`alib chiqishi natijasida qorishiq t q sh q ch, d q q j q ch undoshlari hosil bo`ladi. Ovoz paychalari jiplashib, havo oqimi kuchli bo`ladi (10 rasm).

Turli xil sigmatizmlarni bartaraf qilish

Sigmatizm turlari

1. Tish aro sigmatizm. Bunda sirg`aluvchi va shovqinli tovushlarni talaffuz etishda tilning uchi yukri va pastki tishlarning orasida bo`ladi.
2. L a b t ish sigmatizmi. Sirg`aluvchi va shovqinli tovushlar f va v tovushlariga o`xshab talaffuz qilinadi.
3. Til oldi sigmatizmi. Sirg`aluvchi tovushlar quyidagi holatda talaffuz etiladi.
4. Shovqinli sigmatizm. Bunda tilning uchi tishlarga tegib turmasdan og`iz ichiga tortiladi, tilning orqa qismi esa ko`tariladi, natijada portlash o`rniga yumshoq sh, j tovushi eshitiladi.
5. Yon sigmatizm. Sirg`aluvchi yoki shovqinli tovushlar ikki xil ohangda talaffuz etiladi: tilning uchi alveolalarga taqalib turadi, tilning qolgan qismi esa qirra bo`lib og`iz bo`shlig`ida yotadi va bir tomoni bilan orqa jag` tishlari tomon ko`tariladi, havo oqimi tilning yonidan o`tadi, natijada yoqimsiz tovush paydo bo`lib, havo oqimi yon tomondan chiqadi.
6. Burun sigmatizmi. Nutqning bunday nuqsonida sirg`aluvchi va shovqinli tovushlar talaffuzi. paytida tilning orqa qismi yumshoq tanglay pastga tushishi natijasida havo oqimi burun orqali chiqadi va x tovushiga o`xshash, beo`xshov tovush paydo bo`ladi.

Sigmatizmlarni bartaraf etish

1. Tish aro sigmatizmini bartaraf etishda logoped bolaga yuqori va pastki tishlarni birbiriga yaqinlashtirib, tilning uchini pastki tishlar orqasiga qo'yib s tovushini talaffuz etishni buyuradi va s tovushi aniq eshitilmasa unga yordam beradi.

2. Lab va tish sigmatizmini bartaraf etishda logoped bolaga (s tovushining talaffuzida) lablarni yuqori va pastki tomonga (bunda milklar ko'rinishi kerak) yo'naltirishni taklif etadi.

3. Til oldi sigmatizmini bartaraf qilishda logoped ikki usuldan foydalanishi mumkin:

a) havo oqimini yuqori va pastki tishlar orasidan chiqarish; bunda logopedik maxsus zond yoki gugurt cho'pi yordamida tilning uchini pastki tishning orqasida engilgina bosib turiladi va qavo chiqariladi;

b) tilning uchini keng yoyib yuqori va pastki tishlar orasiga olish va havo oqimini chiqarish.

4. Shovqinli sigmatizmni bartaraf etish uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan til oldi sigmatizmini bartaraf etishning «b» punktidagi usuldan foydalanish mumkin.

5. Burun sigmatizmini, bartaraf qilishda havo oqimi og'iz bo'shlig'idan o'tkaziladi.


Rotatsizm va uni tuzatish

1. Velyar rotatsizm (grekcha — yumshoq tanglay). Bunda til ildizi yumshoq tanglayning pastki chetiga yaqinlashadi va u erda oraliq (tirqish) hosil bo'ladi. Shu oraliqdan o'tayotgan havo oqimi yumshoq tanglayda tartibsiz titrash (vibratsiya) hosil qiladi. Natijada ovozga qo'shilib shovqin chiqadi.

2. Uvilyar rotatsizm (grekcha shsh1a— tilcha), bunda til uchi tebranishi o'rniga, faqat tilcha tebranadi.

3. Kucherskiy rotatsizmi — bunda til uchi tebranmay, lablar jiplashib tebranadi.

4. Yon rotatsizm, bunda til uchi tebranishi o'rniga, tilning yoi tomoni tebranadi, natijada noaniq r tovushi hosil bo'ladi.



R tovushini hosil qilishda bir nechta usullardan foydalanish mumkin.

1 u s u l . Logoped oyna oldida o'tirgan bolaga og'zini katta ochishni va til uchini yuqori tish orqasiga (alveolalar tomon) ko'tarib r tovushini talaffuz etishni taklif etadi va o'zi maxsus zond yordamida til yuganchasini tebratib r tovushiga o'xshash tovushni hosil qildiradi. So'ngra mexanik vositalar yordamida vujudga kelgan r tovushi ochiq, yopiq bo'g'inlarda, so'zlarda, jummalarda, she'r va topishmoqlarda mustahkamlanadi.

2 u s u l. Logoped r tovushini hosil qilish uchun bolaga yuqoridagi usulni qo'llagan holda j tovushini aytiradi va bunda ham mexanik vositalardan foydalanadi.

3 u s u l. Logoped bolaga bir nafas chiqarishda d tovushini baland ovozda aytishni taklif etadi. Talaffuz vaqtida bolaning o'zi tilining uchini tepa alveolalarga urilib turishini oyna orqali kuzatib turishi lozim. Til uchining urilish sur'ati tezlashadi va til uchining tebranish holati har xil dddd... vaznda bo'ladi. Har xil vaznda chiqqan tovush ochiq va yopiq bo'g'nlarni talaffuz ettirish yordamida mashq qildiriladi:

didda adddd adddd
ddddo odddd oddddo
ddddu udddd uddddu
ddddo' o'dddd o'dddd'

Til uchining tebranishi natijasida r tovushi hosil bo'lgach, u bo'g'in, so'zlarni, she'rlarni aytirish bilan mustahkamlanadi.

Lambdatsizm va uni tuzatish

Talaffuz vaqtida l tovushi hosil bo'lmasa, bu holat lambdatsizm deb ataladi. Talaffuz vaqtida l tovushi boshqa tovushlar bilan almashtirilsa, bunday holat paralambdatsizm deyiladi.


L tovushi talaffuz etilganda artikulyatsion a'zolar quyidagi holatda bo'ladi (12rasm): lablar undosh tovushdan so'ng keladigan unli tovush holatini oladi;

— til uchi yuqoriga ko'tarilib, alveolalarga qattiq tegadi va bir oz zarb bilan pastga tushadi;

— tilning o'rta qismi yoy shakliga kiradi;

— tilning orqa qismi bir oz yuqoriga ko'tariladi;

— yumshoq tanglay yuqoriga ko'taril 12 rasm. L tovushi artikulyatsiya profili uchun havo oqimi burunga o'ta olmaydi;



— ovoz paychalari jipslashgan holatda bo'ladi. L tovushi quyidagi tovushlarga almashtiriladi. l^r; l^v; l^u; lqy.

**L tovushini hosil qilish
uchun bir nechta
usullardan foydalanish
mumkin.**

1 usul. Logoped bola bilan birga oyna oldiga o'tirib, unga tilini yassi holatda yuqori va pastki tishlar orasiga olishni va til uchini engilgina tishlagan holda ovoz chiqarishni taklif etadi. Shunda L tovushiga o'xshash tovush hosil bo'ladi. Bunday mashq aniq tovush hosil bo'lmaguncha takrorlanadi.

2 usul. Bunda logoped bolaga tilni yanada yasi holatga keltirib, tishlar orasiga olishi va til uchini engilgina tishlab, i tovushini talaffuz etishni taklif etadi. Shunda l tovushi hosil bo'ladi.

3 usul. Logoped bolaga a tovushini talaffuz qilishni va shu zahotiy oq tilning uchini keng yoyib engilgina tishlashni taklif etadi. Bunda l tovushi aniq hosil bo'ladi. Shundan so'ng l tovushini to'g'ri artikulyatsiyada talaffuz etish o'rgatiladi. L tovushi nutqda aniq va to'g'ri hosil bo'lgach, u bo'g'nlarda, so'zlarda, jumalarda, she'rlarda mustahkamlanadi.

Logopedik mashg`ulotlar jarayonida bola o`z talaffuzini nazorat qila olishi va o`z nutqini atrofdegilar nutqiga taqqoslash asosida talaffuzidagi kamchiliklarni to`g`rilay olish malakasiga ega bo`lishi kerak.

**Logopedik ishlar sistemasini
shartli ravishda olti davrga
bo`lish mumkin:**

I davr — nutqsiz tovushlarni bilish.

II davr — bir xil tovush, so`z birikmasi va iboralarda ovozning balandligi, kuchi, tembrini ajratish.

III davr — tovush tarkibi bo`yicha o`xshash so`zlarni ajratish.

IV davr — bo`g`inlarni farqlash.

V davr — fonemalarni farqlash.

VI davr — tovushlarni oddiy tahlil qilish malakalarini rivojlantirish.

1. «Belkurakcha». Til keng holda chiqarilib, bo`shashtiriladi va pastki lab ustiga qo`yiladi. Bunda til titramasligi kerak. Til shu holda 10—15 daqiqa ushlab turiladi (14rasm).

2. «Kosacha». Og`iz keng ochiladi, til keng chiqarilib yuqoriga ko`tariladi. Til yuqori tishlar tomon olib boriladi, lekin ularga tekkizilmaydi. Shu holda til 10—15 daqiqa ushlab turiladi (15rasm).

3. «Ninacha». Og`iz ochiladi. Til oldinga tomon ingichka qilib chiqariladi. Shu holatda 15 daqiqa ushlab turiladi (16 rasm).

4. «Tepacha». Og`iz yarim ochiladi. Tilning orqa yonlari yuqori jag` tishlar bilan qisiladi. Tilning uchi pastki oldingi tishlarga tiraladi. Bu holat 15 daqiqa ushlab turiladi (17rasm).

5. «Naycha». Til keng holda chiqariladi. Tilning ikki yon tomoni yuqori tomon buklanadi. hosil qilingan naychadan puflanadi. >


Mashq sekin sur`atda 10—15 marta bajariladi (18rasm). Aytib o`tilgan mashqlarning har biri aniq, sekin 8—10 marta bajariladi.




**14 -rasm . “Belkurakcha”
artikulyatsiya mashqi**




**15 -rasm . “Kosacha”
artikulyatsiya mashqi**



**16 -rasm . “Ninacha”
artikulyatsiya mashqi**




17 -rasm “Tepacha” artikulyatsiya mashqi




18 -rasm “Naycha” artikulyatsiya mashqi

**Dinamik
tayyorgarlik
mashqlar**


1. «Soatcha». Til uzuningichka qilib chiqariladi. So`ng shu holda til og`izning o`ng burchagidan chap burchagi tomonga qarab harakatta keltiriladi. Mashq 15—20 marta bajariladi (19rasm).
2. «Ot». Til tanglay tomon so`rilib, so`ng qo`yib yuboriladi. Shunda til tag`illagan ovoz chiqaradi. Tilni tahillatish sekin va kuchli bo`lishi kerak. Bu mashq 10—15 marta bajariladi (20 rasm).
3. «Qo`ziqorin». Og`iz ochiladi. Til tanglay tomon so`riladi, shunda til tanglayga hattiq jipslashadi. Bu holda til ushlab turiladi, shu va otning o`zida pastki jag` pastga tomon tushiriladi. Bu mashq 10—15 marta bajariladi. Bu mashqning «Ot» mashqidan farqi shuki, til tanglayga jipsdashgach, qo`yib yuborilmaydi (20rasm).
4. «Arg`imchoq». Til uzuningichka qilib chiqariladi, so`ng navbatmanavbat goh burun, goh iyak tomon olib boriladi. Bu vaqtda og`iz bekitilmaydi. Mashq logoped sanog`i ostida 10—15 marta bajariladi (21rasm).
5. «Mazali murabbo». Til keng holda chiqariladi, so`ng yuqori lablar yalanadi va til og`iz ichiga olinadi. Bu mashq 10—15 marta qaytariladi (22rasm).
6. «Bo`yoqchi». Til chiqariladi, og`iz yarim ochiq holda bo`ladi. Til bilan avval yuqori lab, so`ng pastki lab aylana bo`ylab yalanadi. Bu mashq yo`nalishni o`zgartirgan holda 10 marta bajariladi (23rasm).
7. «G`altak». Til uchi oldingi pastki tishlar orqasiga tiraladi. Tilning orqa yon tomoni yuqoridagi jag` tishlar bilan qisiladi. Bu mashq 15 marta bajariladi (24rasm).




**19 -rasm. “Soatcha”
artikulyatsiya mashqi**



**20 -rasm “Ot” artikulyatsiya
mashqi**



**21 -rasm “Arg'imchoq”
artikulyatsiya mashqi**



**22 -rasm . “Mazali murabbo”
artikulyatsiya mashqi**



**23 -rasm . “Bo'yoqchi”
artikulyatsiya mashqi**



**24 -rasm . “G`altak”
artikulyatsiya mashqi**

Talaffuz qilish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bosqichi

Bu bosqichning maqsadi maxsus tanlangan nutq materiali bo'yicha bolada tovush to'g'ri talaffuzining boshlang'ich bilimlarini shakllantirishdan iboratdir. Tovushlarni nutqqa qo'yish, nutqda ulardan to'g'ri foydalanish malakalarini shakllantirish, tovushlarni tanlay bilish, o'zaro almashtirib yubormaslik (tovushlar differentsiatsiyasi) aniq masala hisoblanadi. Ko'rsatilgan masalalarni logopedik ish jarayonida yechish zaruriyati, nutqning talaffuz tomonini ontogenetik egallash qonunidan kelib chiqadi.

Bir qancha tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, u yoki bu tovushni paydo bo'lish paytidan boshlab to uni to'g'ri talaffuzigacha, to uni nutqqa kiritguncha ancha vaqt o'tadi. A.N. Gvozdev oradagi bu vaqtni tovushni o'zlashtirish davri deydi. Bu davr 30—45 va ko'proq kun bo'lib o'ziga xosdir. Oldin yangi tovush eski tovush bilan parallel ravishda ishlatiladi (almashtirilgan tovush), bunda oldingi, ya'ni eski tovush yangisiga qaraganda tez-tez ishlatiladi. Keyinchalik yangi tovush tez-tez ishlatiladigan bo'ladi, bir qancha vaqtdan keyin esa u eski tovushni siqib chiqarib hamma vaziyatda ham o'zi ishtirok etadi, keyinchalik uni nutqdan umuman siqib chiqaradi va shundan so'ng yangi tovushni eski tovush bilan birga differentsiatsiya qilish jarayoniga o'tiladi.

F.F. Rau o'z ishlarida tovushlarni nutqqa qo'yishning uch usulini

Birinchi usul — logopeddan eshitgan tovushga mos qilib bolaning ongli ravishda shu tovush artikulyatsiyasini topishga va talaffuz qilishga urinishiga asoslangan. Bunda bola akustik tayanchdan tashqari ko'rish, taktil va fikrlash sezgilardan ham foydalanadi. Taqlid usulda asosan artikulyatsion organing holati qanday bo'lishi kerakligi haqida logoped og'zaki tushuncha beradi. Izlanuvchanlik sirg'aluvchi, jarangli tovushlarni postanovka qilishda yaxshi natijalar beradi. Ba'zi bir tovushlar esa, masalan: sonor "r", Y, affrikatlar "ch", til orqa "k", "g", "x" tovushlar ko'pincha boshqa usuldan foydalangan holda muvaffaqiyatli qo'yiladi.

Ikkinchi usul — maxsus zond yoki shpatel bilan artikulyatsion organga mexanik ta'sir etishga asoslangan. Logoped boladan bir tovushni aytishni va shu tovushni bir necha marta takrorlashini so'raydi, takrorlash vaqtida zond yoki shpatel yordamida tovushning artikulyatsion holatini o'zgartiradi. Natijada boshqa tovush hosil bo'ladi. Bu usulda bolaning artikulyatsion organlari logoped harakatlariga bo'ysunadi, bola mustaqil amalga oshira olmaydi. Uzoq shug'ullanishdan keyin bola mexanik yordamsiz kerakli vaziyatni egallay oladi, o'ziga shpatel yoki qo'li bilan yordam bergan holda.

Uchinchi usul — oldingi ikkita usulni birga olib borilishiga asoslanadi. Taqlid va tushuntirish bunda asosiy rol ni o'ynaydi. Mexanik usuldan qo'shimcha ravishda foydalaniladi. Logoped bolaga kerakli tovush hosil bo'lishi uchun nima qilish kerakligini tushuntiradi: masalan, til uchini ko'tarish (agar bu holat bola tomonidan normal ravishda bajarilmasa). Bu usulda bola faollashadi, logoped tomonidan ko'rsatilgan yordam natijasida kerakli vaziyat uning xotirasida qoladi va keyinchalik ham mexanik yordamsiz bemaolol bajara oladi

Logoped bolaga kerakli tovush hosil bo'lishi uchun nima qilish kerakligini tushuntiradi: masalan, til uchini ko'tarish (agar bu holat bola tomonidan normal ravishda bajarilmasa).

Bu usulda bola faollashadi, logoped tomonidan ko'rsatilgan yordam natijasida kerakli vaziyat uning xotirasida qoladi va keyinchalik ham mexanik yordamsiz bemalol bajara oladi.



Tovush nutqqa qo'yilgandan so'ng uni nutqqa kiritish ustida ish olib boriladi, ya'ni avtomatizatsiya qilinadi. Tovushni avtomatizatsiya qilish jarayoni maxsus tanlangan, fonetik tarkibi oddiy va buzilgan tovushlar ishtirok etmagan so'zlarni mashq qilish asosida olib boriladi. Tovushning so'zdagi o'rni aniqlanadi: boshida, o'rtasida yoki oxirida. Birinchi bo'lib so'zning boshida kelgan tovush ustida ishlanadi, keyin so'zning oxirida kelgan, so'ngra so'zning o'rtasida kelgan tovush ustida ishlanadi.

Tovushni analizi va sintezi ustida ishlash katta yordam beradi.

Ko'pincha, bola avtomatizatsiya jarayonidayoq qo'yilgan tovushni mustaqil ravishda o'z nutqiga kirgiza boshlaydi. Agar bola tovushni boshqasi bilan almashtirmasa, keyingi ishni keragi yo'q. Logopedik amaliyotda bir tovushni avtomatizatsiya qilib boigandan keyin ham uning ustida ishlashni talab etadigan hollar ham uchraydi, ya'ni tovushlarni differentsiatsiyasi ustida ish olib boriladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

Ekspert varagi № 1

- 1.Unli fonemalar qaysi belgilariga ko'ra tavsiflanadi?
- 2.Dislaliyaning qanday turlarini bilasiz?

Ekspert varagi № 2

- 1.Talaffuzida kamchiligi b'ylgan bolalarni yaqindan o'rganing.
- 2.Maxsus bolalar bog'chasida logoped mashg'ulotini kuzating va analiz qiling.

Ekspert varagi № 3

- 1.Dislaliya nuqsonini ta'riflab bering.
- 2.Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar nimadan kelib chiqadi?

Ekspert varagi № 4

- 1.Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar kaysi yo'llar bilan bartaraf etiladi?
- 2.Rotatizm va pararotatsizmni ta'riflab bering.

Test topshiriqlari

1. Rinopapiyani kaysi turlari mavjud

- A. ochik, yopik, va aralash rinopapiya
- B. klonik, tonikk va klonotolik
- S. lab-tish, va tishlararo
- D. sensor, motor va smantik

2. Rinololiya nutk nuksoni nima

- A. tutilib gapirish
- B. mankalanib, dimog bilan gapirish
- S. tovushlar talaffuzini buzilishi
- D. Sekin gapirish

3. Nutk nuksonlari xakida tushuncha

- A. artikulyatsiya
- B. tovushlarni kuyish
- S. til, lab, tanglay, burun, jag va tish kamchiliklari
- D. Eshitishni buzilishi

4. Duduklanish nima

- A. ayrim bugin va tovushlarni kayta takrorlashi;
- B. bugin va tovushlarda tuxtalib kolish;
- S. ayrim suzlarni kayta takrorlash
- D. barcha javoblar tugri
- Ye. «R» xarfini aytolmaslik

5. Sigmatizm necha turga bulinadi.

- A. til oldi, shovkinli, lab-tish
- B. parasigmatizm, yon, burun
- S. tish aro, lab-tish, til oldi, shovkinli, yon
- D. Sxovkinli, burun, lab va til
- Ye. Burun, shovkinli, tish aro

6. «R» tovushini xosil kilishda nechta usuldan foydalanish mumkin

- A. 2
- B. 4
- S. 6
- D. 3
- Ye. 5

7. Rotatizmni turlari nomini ayting

- A. gammatsizm, veler, xitizm
- B. kucherskiy, kappatsizm, yon
- S. velyar, uvilyar, kucherskiy, yon
- D. Totatsizm, lamatsizm, velyar
- Ye. Uviyalr, yon, rotatsizm

Adabiyotlar

1. *M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov.* O'zbektili. T, 1966.
2. *T.B.Fshichyovaidr.* Osnovn logopedii. M, "Prosvesheniye", 1989. ,
3. *R.Shomahmudova, L.R.Mo'minova.* Bogcha va kichik maktab yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni tuzatish. T, "O'qituvchi", 1981.
5. *A.M.Fomichyova, KShodiyeva.* Maktabgachatarbiya shidagibolalarnito'g'ritalaffuzgao'rgatish. T, " Uqpguvchi", 1984.
6. *'M.F.Fomichyova.* Vospitaniyeudeteypravilnogo proiznosheniya. M, 1981. .*G.Kashe.* Ispravleniye nedostatkov rechi u doshkolnikov. M, 1972. 7.Logopediya . Podred. L.S.Volkovoy. M, "Prosvesheniye", 1989. *K.L.R.Mo'minova* va boshkalar. Logopediya. T, "O'qituvchi", 1993.